



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda На посты

2024-yil
6-iyun
payshanba

№ 23 (4665)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

VATANNING GO'ZAL MASKANLARI



Yozning issiq kunlarida tabiat qo'ynda, tog' yon-bag'rida hordiq chiqarishga nima yetsin. Yurtimizning jannatmonand maskanlardan biri bo'lgan «Zomin» turistik zonasida yozgi mavsum endigina boshlanganiga qaramay, hozirgi kungacha 20 ming nafardan ziyod mahalliy, shuningdek, dunyoning 36 davlatidan 500 nafardan ortiq xorijiy dam oluvchilarni qabul qilishga ulgurdi. Ushbu maskanda bugungi kunda 5 ta oromgoh, 140 ta mehmonxona, kemping, mehmon uylari dam oluvchilarga sifatli xizmat ko'rsatmoqda.





«JAR»DA MARKAZIY OSIYO CHEMPIONATI

Ichki ishlar vazirligining «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida 18 yoshgacha bo'lgan o'smir bolalar va qizlar o'rtaida voleybol bo'yicha Markaziy Osiyo championati bahslari boshlandi.

Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (CAVA) hamda O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi hamkorligida o'tkazilayotgan mazkur nufuzli musobaqaning tantanali ochilish marosimida so'zga chiqqan Respublika Ichki ishlar vaziri, O'zbekiston voleybol federatsiyasi raisi, general-leytenant Po'lat Bobojonov yurtimizda sportga qaratilayotgan e'tibor, ayniqsa, jamoaviy sport turlaridan sanalgan voleybolni ommalashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlar, yoshlar o'rtaida muntazam musobaqalar tashkil etilishi milliy



terma jamoa safini iqtidorli sportchilar bilan to'ldirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, tadbirda O'zbekiston Respublikasi sport vaziri Adham Ikromov hamda CAVA prezidenti Muhammad Latiflar ham so'zga chiqib, Markaziy Osiyoda, xususan, mamlakatimizda voleybol sport turiga katta e'tibor qaratilayotganini, yoshlarning iqtidori va salohiyati kun sayin o'sib borayotganini alohida qayd etdilar.

Championatda Markaziy Osiyoning 6 mamlakati – Eron, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va mezbon davlat O'zbekistondan jamoalar ishtirok etmoqda. Bellashuvlar 10-iyunga qadar davom etadi.

СУЛОЛА

ҚУРБОНБОЙ ОТА ЁҚҚАН МАШЬАЛА

Истеъфодаги подполковник Қурбонбой Тангирбердиев ёққан машъала ҳали ҳануз фарзандлари ва на- биралари томонидан эстафета сифатида қўлдан-қўлга ўтиб келмоқда. Унинг ўғли – қарийб қирқ йил соҳа- да хизмат қилган истеъфодаги полковник Султон- бой Тангирбердиевнинг ҳаёт йўли ва фаолияти эса ҳақиқий ибрат намунаси. Набиралари – истеъфодаги подполковник Акмалжон Тангирбердиев, майор Бобур Тангрибердиев ва ИИВ Академияси курсанти Қурбон- бой Тангрибердиев сулоланинг давомчилариридир.



ҚАТАФОН ҚИЛИЧИННИГ ЗАҲРИ

Қурбонбой 1926 йилда Бофот туманида туғилган. Ўн тўрт ёшидан оиласи тириклигини таъминлаш мақсадида қишлоқдаги жамоа хўжалигида котиб, хисобчи ёрдамчиси бўлиб ишлаган. Ҳарбий хизматдан сўнг Туркистон ҳарбий округининг йўлланмаси билан Қирғизистонга бориб, Фрунзе шаҳар ИИБда 15 йил давомида хизмат қилган. Бир пайтнинг ўзида Олмасота ўрта маҳсус милиция мактабини ҳам тамомлаган.

Холисхон ая билан турмуш қуриб, уч қиз ва тўрт ўғилни тарбиялаб вояга етказишиди. 1965 йилда эса уни ўзи туғилиб ўсган Хоразмга юборишади. Дастлаб вилоят ИИБда, сўнгра Урганч шаҳар ИИБда жиноят қидиув бўлинмаси ва Қўшкўпир, Ҳазорасп тумани ИИБларига раҳбарлик қилди. Ўнлаб шогирдларни тарбиялаб, устоз мақомига эришиди.

Ўтган асрнинг саксонинчи йилларида ўзбек халқининг бошига қора булатдек ёпирилган гдлянчиларнинг тазийигига ўшанда Ҳазорасп тумани ИИБ бошлиғи, подполковник Қурбонбой Тангирбердиев ва унинг ҳамкаслари ҳам учраган. Марказдан юборилган терговчиларнинг асоссиз радиша ўтказган руҳий ва жисмоний тазийигу ҳақоратлари унинг саломатлиги жаддий таъсир қилади. Пенсияга чиққанидан бир ой ўтиб, ўткір юрак хуружи туфайли вафот этади.

ҲАҚИҚИЙ ИБРАТ НАМУНАСИ

Отасининг йўлини Султонбой давом эттириди. У ҳақиқий ўзбек ўғлони, ёшлик шикоати ва файрати

адабиётлари етарли эмас эди. У шу соҳанинг етакчи мутахассислари билан ҳамкорлиқда кечаю кундуз изланиш олиб бориб, ҳукуқий ва услубий адабиётлар тайёрлаб, ўқув-методик базани шакллантиришда жонбозлик кўрсатди. Бу эса келгусида Республика ички ишлар органларига етук мутахассислар етказиб беришда ўзига хос замин бўлиб хизмат қилгани айни ҳақиқат. Ўша йиллари соҳа ривожи ва ички ишлар органларига мутахассислар тайёрлашга қўшган муносаб ҳиссаси учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига биноан, «Mehnat shuhrati» ордени билан мукофотланди.

Қаҳрамонимиз 10 йил мобайнида мингдан зиёд кадрларни тайёрлашда ўз ҳиссасини қўшди ва 2014 йилда ушбу лавозимдан иззат-икром билан пенсияга кузатилди. Ҳозирда унинг шогирдлари нафақат ИИВ Академияси ва Малака ошириш институтида, балки



жўш уриб турган йигит, ички ишлари органлари ходими бўлиш мақсадида Ленинграддаги ИИВ Олий сиёсий билим юрти, кейинчалик эса ИИВ Ҳарбий-сиёсий академиясида таҳсил олади. Бир неча йил ўз юритидан узоқда хизмат қилгач, истиқолонинг илк давридаёт Ўзбекистонга қайтади ва кейинги фаолияти она Ватанида ўтади.

Бир муддат ИИВ Ички қўшинлари бошқармасида, сўнгра вазирлик Академиясида кафедра бошлиғи, сафқисми бошлигининг ўринbosari, кундузги бакалавриат курс бошлиғи сифатида самарали хизмат қилди. 2004 йилда Сержантлар таркибини тайёрлаш олий курсларига С. Тангирбердиев бошлиқ этиб тайинланади.

Эндиғина ташкил этилган курсларда ҳали ўқув

республикамиз ва хориждаги ички ишлар органларида масъул лавозимларда хизмат қилишмоқда.

Ҳамкаслари ва шогирдларининг хотира-лашича, С. Тангирбердиев ўз касбининг устаси ҳамда билимдони бўлишдан ташқари, югуришда ҳам, тўсинда тортилишда ҳам барчани лол қолдирган. Юриш-туриши, тартиб билан кийиниши ва муомала маданияти, мунтазам интизомга ва озодаликка риоя қилиши унинг салобатини янада оширади. Талабчан ва қаттиқўл, тўғрисиз, адолат тарафдори ҳамда ваъда-

сининг устидан чиқадиган қатъиятли раҳбар бўлиш билан бир қаторда, соғдил ва меҳрибон, ҳар бир сўзни ўз ўрнида ишлатадиган инсон эканлиги ҳам унинг ўзига хос фазилатларидан эди.

– Бизнинг танишишимиз 1979–80 йилларга бориб тақалади, – дейди истеъфодаги полковник Иброҳим Маҳмудов. – Шу йиллари мен Россиянинг Элиста шаҳридаги ҳарбий қисмларнинг бирида йигитлик бурчимни ўтаётган эдим. С. Тангирбердиев рота командирининг ўринbosari эди. Шу ерда у мен билан қизиқиб қолган ва ўқишим кераклигини айтиб, Владикавказдаги ҳарбий билим юртида таҳсил олишим учун йўлланма олишимга ёрдам берган. Шундан сўнг анча вақтлар ўтди. Мен Андижондаги ИИВ Ички қўшинларга қарашли батальонда командир ўринbosari бўлиб хизмат қиллаётганимда Султонбой ака хизмат сафари билан бориб қолди.

Шу ерда яна учрашдик ва бу кейинги биргаликдаги фаолиятимизга пойdevor бўлди. С. Тангирбердиев ИИВ ИҚБ 7345-сонли ҳарбий қисм командири эди. Унинг тавсиясига кўра, мен ушбу ҳарбий қисм командирининг ўринbosari лавозимига тайинландим. Кейин Султонбой ака билан ИИВ Академиясида 2006–2012 йилларда бирга хизмат қилдик. Ҳам қадрдан дўстим, ҳам устозим бўлган бу қалби дарё инсондан ҳам ҳаётӣ, ҳам соҳага оид кўп нарсаларни ўргандим.

С. Тангирбердиев пенсияга кузатилганидан сўнг Бектемир туманидаги «Chilon

хўкумат томонидан олиб борилган саъй-ҳаракатларга кўмак бўлиш мақсадида ушбу МЧЖ тумандаги 50 нафар оилани оталиқقا олиб, озиқ-овқат, дори-дармон ва бошқа керакли нарсалар билан таъминлашда ҳамда вақтинча ташкил этилаётган «COVID» марказларини куриш ва керакли анжомлар билан таъминлашда жонбозлик кўрсатди. Афсус, ушбу даврда Султонбой аканинг ўзи ҳам коронавирусга чалиниб, хасталиқдан вафот этди. Вафотидан сўнг Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига биноан, «Mehr-saxovat» кўкрак нишони билан тақдирланди.

ЭСТАФЕТА ДАВОМЧИЛАРИ

Султонбой ака турмуш ўртоғи Лобар опа билан уч фарзандни вояга етказишиди. Улар орасидан ўғли истеъфодаги подполковник Акмалжон Тангирбердиев ҳам сулола давомчиси сифатида узоқ йиллар ИИВ Транспорт ва туризм обьектларида хавфсизлини таъминлаш департamenti хузуридаги Тергов бошқармасида хизмат қилди.

– Соҳани танлашимда ҳаётини яхшиликларга, хайрли ва савоб ишларга баҳшида этган, ўзидан яхши ном ва из қолдиришга ҳаракат қилган бобом ҳамда отамнинг ўрни алоҳида бўлган, – дейди А. Тангирбердиев. – Чуқур билим ва малака талаб қилувчи тергов йўналишида фаолият юритишмада ҳам отамнинг насиҳатлари қўл келган. Оғир, вазмин ва мулоҳазали бўлган отамнинг ҳар

бир ўғити ҳаётда ўз ўрнимизни топишимизда мустаҳкам замин бўлган.

Айни кунда Қурбонбой отанинг яна бир фарзанди Улуғбек аканинг ўғли – майор Бобур Тангрибердиев Хоразм вилояти ИИБ хузуридаги Тергов бошқармасида терговчи. Яхши ният билан бобосининг исми қўйилган яна бир сулола давомчиси Қурбонбой Тангрибердиев ИИВ Академиясида таҳсил олмоқда.

Сарвар СОБИРОВ,
ӯз мухбиримиз.



Lubricants» МЧЖга раҳбарлик қилди. Ўзбекистонда коронавирус инфекцияси тарқалгач, ижтимоий ҳимоя биринчи ўринга чиқди. Шунда Республика миқёсида



■ Ферганская область



В эти дни рабочая группа, состоящая из квалифицированных профессоров и преподавателей Академии МВД, пребывает в Ферганской области по программе «Сайёр Академия».

Члены рабочей группы с выездом на места проводят семинары-тренинги для повышения профессиональных знаний инспекторов профилактики, оперуполномоченных и следователей.

Содержательными были мероприятия, состоявшиеся в городе Маргилане, в Ташлакском, Бувайдинском и Учкуприкском районах.

Также тренинг с участием представителей Академии прошел в УКД ОВД города Ферганы.

Совмещению теории с практикой было посвящено выездное занятие, проведенное в Ферганском академическом лицее МВД.

Соб. корр.

★ В подразделениях ОВД

ГЛАВНОЕ НЕ КОНТРОЛЬ, А ДОВЕРИЕ

Сотрудники группы пробации Янгиерского ГОВД выполняют непростую миссию по возвращению к нормальной жизни людей, однажды преступивших закон.

Вечерело. Старший инспектор группы пробации Янгиерского городского отдела внутренних дел капитан Алишер Бокибеков еще не закончил свою работу. Он направляется в махаллю Маърифат, чтобы проверить гражданина, взятого под надзор. 29-летний парень за мошенничество был приговорен судом к трем годам ограничения свободы и привлечен к исправительным работам. Согласно приговору, он не имеет права покидать определенную территорию. Капитан нажал на знакомую кнопку звонка у ворот дома. Спустя несколько минут появился подопечный капитана. Состоялся короткий разговор. Инспектор поинтересовался делами, самочувствием, семьей. Убедившись, что проблем нет, попрощался и направился по другому адресу.

Под надзором группы пробации СОБ Янгиерского ГОВД находятся 170 лиц. Нынче капитан должен проверить двадцать из них.

Инспектор группы пробации Янгиерского ГОВД капитан Ислом Сафаров отличается настойчивостью, железной хваткой. Умение убеждать стало его визитной кар-



точкой. Недаром за минувший период года удалось трудоустроить ряд лиц, находящихся под надзором пробации. Нынешняя ярмарка тоже стала результативной. По ее итогам работу получили девять человек. Значит в девяти семьях будет стабильный заработок.

А в махалле Давлатобод выездное судебное заседание. Рассматриваются дела семи граждан. По итогам выездного заседания решением суда шесть лиц условно-досрочно освобождены от наказания.

Среди них есть и 26-летняя С. А. Ранее она работала поваром в дошкольной образовательной организации. При проверке было обнаружено хищение продуктов. В течение полутора лет осужденная выполняла исправительные работы, следовала всем предписаниям закона. Чистосердечно раскаялась. Пунктуально перечисляла проценты с заработной платы. Учтя положительные изменения, суд условно-досрочно освободил ее от наказания.

**Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.**

На снимке: сотрудники группы пробации капитаны Ислом Сафаров (слева) и Алишер Бокибеков.

Сырдарынская область.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

TA'LIM MUASSASALARIDA

YANGI BINODA – YANGI IMKONIYATLAR

2003-yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Farg'onada shahridagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan «Nurli maskan» maktab-internatida 400 nafarga yaqin yoshlar ta'limgarishni oladi. Ichki ishlar vazirligi tomonidan otaliqqa olingach, bu yerda ta'limgarishni tizimini yaxshilashga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi.

Brayl kitoblar, tarqatma alifbo, grifel, televizor va o'quvchilar uchun kiyim-boshlar olib berildi. Yoshlarning iqtidor va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, qo'llab-quvvatlash maqsadida sport musobaqlari, kitobxonlik tanlovlari va ko'plab ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Natijada ta'limgarishni oshib, qisqa muddatda o'quvchi yoshlar orasidan fan olimpiadalari g'oliblari, musiqa va san'at yo'nalishida, sportning shaxmat, shashka, futbol kabi turlaridan respublika va xalqaro darajadagi musobaqlar ishtirokchilari, championlar yetishib chiqdi.

O'tgan yilning oktabr oyida maktab-internat uchun yangi bino qurish harakati boshlandi. Bugun esa ushbu sa'y-harakatlar o'z mevasini

berib, barcha qulayliklarni o'zida mujassamlashtirgan yangi, zamonaviy bino qurib bitkazildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali marosimda viloyat hokimligi, Ichki ishlar vazirligi hamda viloyat IIB



rahbariyati, faxriylar, ta'limgarishni mutasaddilari, ota-onalar va o'quvchi yoshlar jam bo'ldi. Unda so'z organlar foydalanishga topshirilgan ko'rak binoda farzandlarimiz zamonaviy sharoitlarda, puxta bilim olib, mamlakatimiz ravnag'i uchun xizmat qiladigan sa-lohiyatli kadrlar bo'lib kamolga yetishishiga ishonch bildirdilar. Faxriylar ishtirokida mutasaddi rahbarlar va mehmonlar yangi binoda yaratilgan shart-sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Maktab-internat hududi 1 hektar 52 sotix yer maydonini egallagan bo'lib, ma'muriy binoda o'quvchilar uchun 19 ta dars xonasi, 6 ta maxsus xona mavjud. Shuningdek, 120 o'rinni oshxona, 3 ta tibbiy xizmat ko'rsatish xonasi, sport zali, yuvinish xonalari, 9 mingdan ortiq brayl alifbosidagi kitoblarni o'zida jamlagan kutubxona, ma'rifat zali o'quvchilar ixtiyorida. Maktab hovlisida esa yo'il harakati qoidalarini o'rgatuvchi maxsus maydoncha tashkil etilgan. Hududni yashil makonga aylantirish maqsadida 400 tupdan ortiq turli xil manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, kashtanzolar, gulzorlar yaratilgan.

Bir so'z bilan aytganda, «Nurli maskan» maktab-internatining yangi, zamonaviy binosi o'quvchi yoshlar uchun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni bayramiga munosib sovg'a bo'ldi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'onada viloyati.



 Точка зрения

РАЗМЫШЛЕНИЯ... НЕ У ПАРАДНОГО ПОДЪЕЗДА

Имея определенный опыт управления автомобилем и практически ежедневно находясь за рулем, хотел бы поделиться соображениями о дисциплине участников дорожного движения.

...Меня раздражают водители, управляющие автомашиной одной рукой, выдвинув вторую выше локтя за окно. Не понимаю – это бахвальство или «высокий профессионализм»?! Считал и считаю: во время управления автомобилем за руль необходимо держаться обеими руками, несмотря на то, что современным авто управлять достаточно легко (вспомните старые модели, где отсутствовал гидроусилитель руля). Думаю, в критической ситуации «автогерой» не успеет вовремя среагировать и

принять верное решение. Результат, как правило, бывает плачевый.

Хотелось бы высказать еще несколько рекомендаций, которые будут полезны водителям.

Прописная истина: чтобы перестать быть пешеходом, достаточно приобрести авто, выучить ПДД, разобраться в устройстве машины и сесть за руль. Но чтобы стать водителем, а тем более хорошим, этого мало. Чем чаще управляете автомобилем, тем больше набираетесь опыта, разбираетесь в «языке дороги», который, как из-



вестно, складывается из ежедневно встречающихся важных «мелочей».

Убежден, что культура поведения водителя на дороге напрямую связана с общей культурой поведения личности в обществе. Человек, адекватно ведущий себя в любой обыденной ситуации – на улице, в театре, за столом, аналогично ведет себя и за рулем.

Действия водителя, находящегося за рулем, должны быть понятны и предсказуемы. Это главный залог спокойного, разумленного движения.

Взаимоуважительное отношение участников

движения – это уровень культуры водителей и пешеходов, невзирая на социальный статус. Не нужно забывать, что каждый водитель бывает пешеходом.

Помните, что самая безопасная скорость движения автомобиля – скорость движения потока.

Во время движения соблюдайте дистанцию – не подпирайте бампером впереди идущий автомобиль. Несмотря на то, что современные машины оснащены надежными тормозными системами, в критических ситуациях, к сожалению, часто не хватает каких-нибудь сантиметров, чтобы не стол-

кнуться с едущим впереди коллегой.

Еще один болезненный момент – парковка автомобиля. Оставляя авто где-то даже на короткое время, делайте так, чтобы оно не загораживало проезд другим участникам движения, не помешало выезду с парковки. Лучше всего парковать автомобиль задним ходом, этим облегчите выезд себе.

Хороший водитель должен понимать все составные части науки вождения автомобиля, а это не только работа рулем и педалями.

**Михаил ТАТАРНИКОВ,
подполковник в отставке.**

 Нет коррупции!

ИНАЧЕ БЫТЬ НЕ МОЖЕТ

Талгат Сейтов (фамилии и имена потерпевшего и правонарушителя изменены) копил средства на покупку коровы с теленком. Наконец в марте текущего года с необходимой суммой направился на скотный рынок Элликкалинского района. Долго кружил среди толпы продавцов и покупателей, выбирал, приценивался...

Вдруг его нечаянно задел один из парней, следовавших за ним по пятам. Незнакомец вежливо извинился и быстро стал удаляться. «Ничего, бывает», – промолвил Талгат и опять погрузился в свое, предвкушая дорогостоящее приобретение. Лишь пройдя несколько десятков метров, почуял неладное. Быстро потрогал укромное место в одежде, куда положил 9 миллионов сумов. Но карман был пуст. Ноги стали ватными, пробрал холодок.

Вытянув шею, сразу стал высматривать того парня из людской толчи. К счастью, подозреваемый ушел недалеко. Догнав его, схватил за одежду. Поднялся шум, образовалась толпа зевак. Несший службу на рынке оперуполномоченный уголовного розыска оперативно-розыскной группы Элликкалинского РОВД старший лейтенант Омарбек Исатаев немедленно прибыл на место происшествия.

В ходе предварительного следствия было установлено, что со-



вершена кража, а подозреваемым является житель Нукуса Алимжан Айтимбетов.

Желая уйти от наказания, Алимжан стал предлагать старшему лейтенанту два миллиона

сумов. Сотрудник разъяснил, как квалифицируется попытка дачи взятки, чем это грозит. Но подозреваемый настаивал на своем. Тогда О. Исатаев обратился с рапортом к руководству в целях принятия законных мер в отношении зарвавшегося гражданина.

В ходе оперативного мероприятия, проведенного Управлением по Республике Каракалпакстан Главного управления собственной безопасности МВД Республики Узбекистан совместно с прокуратурой, А. Айтимбетов был задержан в момент дачи взятки в размере 800 тысяч сумов. Стремясь избежать ответственности за одно преступление, он совершил второе.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.
Республика Каракалпакстан.**



 SOHAVIY XIZMATLARDA

MAHORAT MASHQDA SHAKLLANADI

Shu kunlarda viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi xodimlari ishtirokida umumiy va maxsus kurs yo'naliishlarida o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Bu jarayonda soha vakillarining kinologiya xizmati tarixi, kinologning kasb eti-kasi, itlarni xizmatga tayyorlashning fiziologik asoslari, jonivorlarni buyruqqa bo'ysundirish va salomatligini asrash kabi mavzulardagi nazariy bilimlari os-hiriladi.



Amaliy mashg'ulotlarda esa to'siqlardan o'tish, bino va inshootlarni tekshirish, jinoyat turiga ko'ra voqeа joyida iz qidirish, qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsnı qo'lga olish, qurolli portlovchi hamda giyohvandlik moddalarini topish kabi mashqlar bajarilyapti. Bir oy davom etadigan mashg'ulot yakunida o'quv kurslari qatnashchilarining iz qidiruv, portlovchi hamda giyohvand moddalarni topishga oid salohiyati sinovdan o'tkaziladi. Bo'linmada bunday mashg'ulotlar yiliga ikki marta tashkil qilinayotir.

Ayni paytda IV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlash-tirish boshqarmasi Maxsus tayyorgarlik o'quv markazida 3 nafar jizzaxlik kinolog uch yarim oylik kurslarda malaka oshirmoqda.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

 FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

ODAMIYLIK KO'RKI – SAMIMIYLIKDA

Odamiylik ko'rki, madaniyatilik insonning insonga munosabatida, aynilsa, bolalarga bo'lgan mehrida yaqqolroq ko'rindi. Maqolamiz qahramoni – iste'fodagi serjant Erkin Saitov ana shunday xushmuomala, samimiyl, bolajon inson.

1983–2007-yillarda viloyat ichki ishlар organlarida patrul-post xizmatida, keyin Termiz shahar IIB Jinoyat qidiruv bo'limida kichik inspektor vazifasida xizmat olib borgan lavhamiz qahramoni bir muddat bojxona postida kinolog xodim sifatida ham faoliyat ko'rsatdi. So'ng viloyat IIB Kinologiya bo'linmasida ishlab, shogirdlar tayyorladi.

Erkin Saitov o'z kasbiga sodiq, mas'uliyatlari bo'lgani bois xizmat faoliyati davrida ko'plab jinoyatlarning fosh qilinishida faol ishtirok etdi. Aynilsa, 1996-yili Termiz tumanida joylashgan «Ayritom» chegara bojxona posti orqali yurtimiz hududiga kirib kelayotgan yuk avtomobilini tekshirish chog'ida o'ziga biriktirilgan xizmat iti yordamida uzum qutilari ostida 4 tonna 900 kilogramm giyohvandlik muddasi borligini aniqlaydi.

Davlatimiz rahbarining farmoniga binoan Erkin Saitov «Jasorat» medali bilan taqdirlangan.

– Kasbimni juda yaxshi ko'rardim, – deydi Erkin Saitov. – Topshiriq



berildimi, uni o'z vaqtida, to'la-to'kis ado etmaguncha ko'nglim joyiga tushmasdi. Otam bizni shunday intizom bilan yashashga o'rgatgan.

Erkin Saitov 2007-yilda pensiyaga chiqqach, viloyat IIB Faxriylar kengashi a'zosi sifatida barcha tadbirlarda faol qatnashadi. Ikki

qiz, bir o'g'ilni voyaga yetkazgan qahramonimiz nabiralari bilan vaqt o'tkazishni xush ko'radi, ularga rivoyatlar, ertaklar so'zlab berishdan erinmaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

QUYUQ MEHMONDORCHILIKDAN SO'NG

To'rt oshna yig'ilib, Samarqand shahridan oqdaryolik hamkasbining tug'ilgan kunini nishonlash uchun yo'l olishdi. Mehmondorchilik anchagina quyuq bo'ldi. Davradagi-larga qo'shilib, ellik grammni otvorganidan keyin Alisherning ishtahasi ochildi. Mashina haydab kelgani esiga tushganida, «Kech bo'ldi-ku, endi qatnov sanjablashgandir. Mashinani sekin haydab, uyga yetvolamiz-da», deb o'zini o'zi tinchlantirdi. Keyin ulfatchilikni davom ettirdi. Tun qorong'usida ham bedorlar borligini, uning har bir nojo'ya hatti-harakati qonuniy baholanishini, eng asosiysi, ichkilik ta'sirida biror kor-hol sodir etishi mumkinligini o'yamadi.

– 2024-yil 5-fevral kuni soat 23:40 larda Samarqand viloyati Oqdaryo tumani hududidan o'tuvchi M-37 avtomobil yo'lining 11-kilometrida xizmat olib borayotgan vaqtida «Cobalt» rusumli avtomashinani boshqarib kelayotgan haydovchining harakatlari shubha uyg'otgandi. Shuning uchun uni to'xtatdim, – deydi Samarqand viloyati IIB JXX YHXB YPX batalyoni uchinchi otryadi ikkinchi safarbar gu-

ruhi komandiri, katta leytenant Bahodir Xudoyberdiev. – Muloqot qilish jaronida uning spirtli ichimlik iste'mol qilgani shundoq sezilib turardi. Ushbu holat bo'yicha ma'muriy bayonnomaga rasmiylashtirib, avtomashinani jarima maydoniga joylashtirdim.

Oradan to'rt kun o'tib, B. Xudoyberdiev o'ziga biriktirilan hududda xizmat olib borayotgan vaqtida, uning oldiga Alisher kelib, unga nisbatan chora ko'rmaslik, to'plangan hujatlarni YHXB-ga o'tkazmaslik hamda avtomashinasini jarima maydonidan chiqarib berish evaziga 400 AQSH dollari miqdoridagi pullarini pora sifatida taklif qiladi.

Inspektor fuqaroga harakatlari no-qonuniyligini, pora berish-olish jinoyat ekanligini bir necha bor tushuntirishiga qaramasdan, u o'z fikridan qaytmaydi. Shundan so'ng B. Xudoyberdiev Samarqand viloyati IIB boshlig'iiga bildirgi bilan murojaat qiladi. Natijada huquqbazarlikka qo'l urgan Alisher va'da qilgan pullarini berayotgan vaqtida qo'iga olindi.

– Oqdaryo tumani hududidan o'tuvchi M-37 avtomobil yo'li kecha-yu kunduz serqatnov, – deydi katta leytenant B. Xudoyberdiev. – Bu, o'z navbatida,



barcha harakat ishtirokchilaridan e'tiborli, ziyrak va hushyor bo'lishni talab qiladi. Afsuski, oramida spirtli ichimlik iste'mol qilib, o'zi va boshqalarning hayotini xavf ostiga qo'yadiganlar ham yo'q emas. Yuqoridagi holatda ham avtomashinada uch nafar yo'lovchi bor edi. Tashvishlisi, bu taxlit avtomashina boshqarish yakuni juda ayanchli yakun topmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi, albatta.

To'paloni haddan oshgan bolani tartibga chaqirgan ko'yi ota-onalar «To'palonchi, bebosh», deb koyiydi.

Xo'sh, qilayotgan ishi noto'g'riligini ko'ra-bila turgan kap-katta odamlarni qanday kojish kerak? Yana bir aybini yashirish uchun ikkinchi aybli qilmishga qo'l ursa-chi?..

Bundaylarni Bahodir Xudoyberdiev singari kasbiga sadoqatli va fidoyi, halol xodimlar qanday kojishni yaxshi bilishadi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.**

Samarqand viloyati.

PROFILAKTIK TADBIRLAR

XASTA BO'LMASDAN BURUN...

Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanida «Tun», «Hamkor», «Diqqat, piyoda!» kabi maxsus profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Milliy gvardiya hamda favqulodda vaziyatlar boshqarmalari xodimlari ham jalb qilingan tadbirda asosiy e'tibor jamoat xavfsizligini ta'minlash, turli ko'rinishdagi huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, qidiruvdagi shaxslarni aniqlashga qaratildi.



Profilaktik tadbirlar davomida tungi payt faoliyat olib boruvchi 25 ta choyxona, 48 ta do'kon va boshqa ko'ngilochar maskanlar ko'zdan kechirilib, mas'ul shaxslar bilan profilaktik suhbatlar uyuştirildi. Bunda ob'yeqturga tungi yoritish uskunalarini hamda kuzatuv kameralarini o'rnatish, qo'riqlash xizmati imkoniyatlardan samarali foydalanish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioxat etish kabi masalalar bo'yicha ham tushuntirishlar berildi.

– Mazkur tadbirlarda turli huquqbazarliklar sodir etgan

va shubha uyg'otgan 45 nafar shaxs tuman IIB hamda huquq-tartibot maskanlariga olib kelindi, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik O'.Husainov. – Shundan 32 nafariga belgilangan tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Tungi vaqtida 4 nafar voyaga yetmagan ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning nazoratisiz yurgani aniqlanib, ulardan 3 nafari ota-onasi ixtiyoriga, 1 nafari viloyat IIB JXX HPB VEIHYOK markaziga topshirildi. Mast holda yurgan

2 nafar shaxs esa narkologiya dispanserining tibbiy hushyorxonasiga joylashtirildi.

Tadbirlar doirasida, shuningdek, tuman IIB probatsiya guruhi hisobida turgan mahkumlarning sud tomonidan belgilangan cheklavlarga rioxat etishi ham o'rganildi. Natijada mahkumlardan N.E. spirtli ichimlik iste'mol qilgani, X.K.ning esa yashash manzilida yo'qligi aniqlanib, ularga nisbatan tegishli choralar ko'rildi. Bundan tashqari, jinoyat sodir etib, tergov organlaridan yashirinib yurgan qo'shko'pirlik M.D. ham qo'iga olinib, tergov organlariga topshirildi.

Tuman hududida yo'l-trans port hodisalariga yo'l qo'ymaslik uchun kuchaytirilgan tartibda xizmat tashkil etilib, YPX inspektorlari tomonidan 184 ta qoidabuzarlik holati aniqlandi. Shundan 136 tasi qo'pol qoidabuzarliklar bo'lib, 40 ta avtovoz vositasi vaqtinchalik jarima maydoniga qo'yildi.

Profilaktik tadbirlar viloyatning barcha shahar va tumanlarida uyushqoqlik bilan davom etmoqda.

**Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.**

Xorazm viloyati.

ODAM SAVDOSI – OLAM MUAMMOSI

JINOYATNING OLDI OLINDI

Odam savdosi bugun insoniyatga qarshi asosiy tahdidlardan biriga aylandi. Xalqa-ro ekspertlarning baholashicha, dunyo bo'yicha odam savdosidan tushadigan yillik daromad 7 mlrd AQSH dollaridan oshmoqda.

Mamlakatimizda odam savdosiga qarshi samarali kurashish maqsadida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, huquq-tartibot idoralari, ayniqsa, ichki ishlar organlari tomonidan tezkor-profilaktik tadbirlar olib borilmoqdaki, bu yurtdoshlarimiz odam savdosi qurbaniga aylanishining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Yaqinda Samarqand viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan tezkor tadbir o'tkazildi. Tezkor tadbir davomida fuqarolar Yu.A. va S.M. oldindan jinoiy til biriktilib, N.A.ni Toshkent xalqaro aeroporti orqali xorijga foishalik qilish uchun olib ketayotgan vaqtida ushlandi. Holat

yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, Yu.A. va S.M. ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olindi.

Albatta, odam savdosidek mash'um ji noyatning oldini olish, bu illatni tag-tomiri bilan yo'qotish, birinchi galda, barchamizdan hushyorlikni, tevarak-atrofimizda ro'y berayotgan voqeahodisalarga befarg qaramaslikni talab etadi. Bu borada respublikamizdagi barcha xalqaro aeroportlar, temir yo'l vokzallarida

«Odam savdosidan ogoh bo'ling» nomli videoroliklar munta-zam efirga uzatilib, chet davlatlarga ketayotgan fuqarolari-mizga targ'ibot materiallari tarqatilmoqda.

**Nozim G'ULOMOV,
mayor.**

 CHEKKA HUDUDLARDA

O'sha kunlari ko'p qatori mahalla profilaktika inspektori, katta leytenant Rustam Narzullayevning yumushi ko'paydi. Mahallada obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlari avj olsa-yu, inspektor chetda tursa, yaxshimas. Shu bois u goh ko'chat ekayotganlar, goh yo'chilar, goh uylarni ta'mirlayotganlar oldida hozir bo'lar, qurilish materialarining o'z vaqtida yetib kelishi, ko'chatlar sug'orilishi, ha-sharchilarga tushlik yetkazilishiga bosh-qosh bo'ldi. Sa'y-harakatlar o'z samarasini berdi. Mahalla ko'chalar chiroy ochdi. Binolar charog'on bo'lib, odamlarning kayfiyati o'zgardi. Bu hali boshlanishi edi. Profilaktika inspektorining o'z vazifasi ham bor. Jinoyatchilikning oldini olishning samarali vositi sifatida ijtimoiy profilaktikaga urg'u berila boshlangandi. Sababi mahalla «qizil toifa»ga o'tib qolgan edi. Katta leytenant ishga kirishdi. Mahallada beshta jinoyat sodir bo'lgandi. Ularning uchtasi tan jarohati yetkazish bilan bog'liq.

Sektor mutasaddilari bilan hamkorlikda o'ndan ortiq fuqaroga 80 sotixdan yer ajratilib, ularning har biriga imtiyozli kredit asosida chorva mollari olib berildi. «Yoshlar daftari»dagilar alohida nazoratga olindi. Qiziqishiga qarab, elektr

Yo'Idoshobod Mirzaobod tumanining chekka mahallalaridan biri. Hudud o'tgan yili «Obod mahalla» dasturiga kiritildi. Natijada qishloqqa kiraverishdagi qariyb o'n chaqirim yo'l asfaltlandi. O'nga yaqin kottej kapital ta'mirlandi. Mahalla yig'ini yangi qurilgan binoga ko'chib o'tdi. Ichimlik suvi quvurlari tortildi. To'rt mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan Yo'Idoshobod obod maskanga aylandi.



payvandlash, tikuvchilik, qandolat-chilik kasbiga o'qitildi. Olti oydan so'ng ular orasidan tadbirkorlikka layoqati borlarga subsidiya asosi-

da hunarmandchilik vositalari olib berildi. Uch oy o'tgach, mahallada yangi ish boshlagan kichik tadbirkorlarning mahsulotlari Yangiye

shahridagi bozorlar va do'konlar peshtaxtalarini bezay boshladi. Buning ortidan ko'plab xonardonlarga baraka kirdi. Ulardagi muhit ham o'zgara boshladi.

– Nizoli oilalarni yarashtirishda ham profilaktika inspektorimizning o'rni katta, – deydi Yo'Idoshobod mahallasi raisi Asadillo Abdujabborov. – O'tgan yili o'nga yaqin nizoli oilalar bor edi. Hozirda bor-yo'g'i uchta shunday oiladagi muhit ham yaxshilanmoqda.

Joriy yilda mahalla «qizil toifa»dan chiqdi. Jinoyatchilik qisqardi. Vaziyat o'zgardi.

Profilaktika inspektori mahalladagi 31-umumta'lim maktabi bilan mustahkam aloqa o'rnatgan.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.**

Suratda: katta leytenant Rustam Narzullayev mahalla oqsoqoli Musurmon ota Shomirzaev bilan.

Sirdaryo viloyati.

 MAHALLA TINCH – YURT OBOD


KENGASHLI TO'Y TARQAMAS

– deydi profilaktika inspektori, kapitan Azizbek Ismoilov. – Doimiy harakatda oлg'a intilib, yaratish ishtiyoqida bo'lgan insonlarining yomonlik qilgani vaqt bo'lmaydi. Polvonko'lda chetga ish izlab ketayotganlar deyarli yo'q. Farzandlar ota-onasi bag'rida. Hududimizdagi mакtabda davomat yuz foizga yetdi. Bunday natijalarga hamma o'z ishini mas'uliyat bilan bajarayotgani uchun erishilyapti, deb bilaman.

E'tiborli jihat shundaki, mahallada har bir ish yoshi ulug'larning o'gitlari ga qulqutib, ularning maslahati bilan hal etiladi. 14 nafar nuroniyidan iborat jamoatchilik guruhiga Mirzakarim ota Shermonov boshchilik qiladi. Tadbirkorlarning ehtiyojmand fuqarolarning uy-joyini ta'mirlanishidan tortib oziq-ovqat, davolanish xarajatlari uchun beriladigan yordamlari otaxonlarning odilona tavsiyalari asosida yo'naltiriladi. Har oy ro'yhat asosida ehtiyojmandlar holida xabar olinadi.

Bu yil qishloq tadbirkorlari qishloq vrachlik punktini kengaytirish tashabbusi bilan chiqdilar. Ayni paytda tibbiyot punktiga qo'shimcha kunduzgi statsionar davolanish uchun 4 ta xona qurilmoqda. Bino uchun ishlataladigan yog'och materiallar tadbirkorlarning o'zidan bo'lmoxda.

– Mahalla fuqarolar yig'ini uchun olti xonadan iborat bino davlat-xususiy sherikchilik asosida tadbirkor Rivojiddin Hamroqulov tomonidan qurib berildi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nasiba Hamroqulova. – Bu yerda chevarxona ham tashkil etilib, 3 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlangan.

Sirasini aytganda, polvonko'lliklar ahillik, hamjihatlikda har bir ishning qalovini topayotir. Zotan, kengashli to'y tarqamas, deb shunga aytildi.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.**
Namangan viloyati.

Norin tumanidagi Polvonko'l mahallasi «yashil» toifaga kiritilgan obod va osoyishta manzillardan biri. Buning asosiy omili mahalla odamlarining doimiy ish bilan bandligi, yettilik doirasidagi ishlarning to'g'ri yo'liga qo'yilganidir.

2800 nafarga yaqin aholi istiqomat qiladigan mahalla tuman markazidan chekkaroqda joylashgan. Mahallaning o'sish drayveri – terakchilik va yog'ochni qayta ishlash. Bunda terak ko'chatlari yetishtirishdan boshlab yog'ochni qayta ishlashgacha bo'lgan ja-

rayonlar amalga oshiriladi. Mahallada 35 ta xonadonda yog'ochni qayta ishlash sexi tashkil etilgan. Aka-uka Xayrullo va Baxtiyor Davronovlar, Dilshodbek Hojiyev, Mahmudjon Nazarov kabi tadbirkorlar yetkazib berayotgan qurilishda ishlataladigan

sifatli yog'och mahsulotlariga respublikamizning turli hududlarida ham talab ortib bormoqda. Mevalar pishib yetilgan paytda esa quti ishlab chiqarish yo'iga qo'yiladi.

– Huquqbazarlik yoki jinoyatlar bekorchilikdan, loqaydlikdan kelib chiqadi,



 MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

MAJORITAR-PROPORTIONAL SAYLOV TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

So'nggi yillarda mamlakatimizda parlament hamda mahalliy vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalarning rolini yanada kengaytirish, vakillik organlariga saylangan deputatlar va senatorlarning parlament hamda mahalliy vakillik organlari faoliyatidagi mas'uliyati va faolligini oshirish borasida demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2023-yil 18-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi asosida o'tkazish bo'yicha yangi tizim yaratildi. U siyosiy partiyalar va deputatlar o'ttasidagi aloqalarning mustahkamlanishi hamda siyosiy partiyalar mavqeining yanada oshishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyamizning 128-moddasiga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyyati vakillik organlariga saylovlar joriy yilda oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkazilishi belgilangan. Qonunchilik palatasiga saylovlar yangi qabul qilingan qonunga ko'ra, aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Ya'ni, 75 nafar deputat majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafar proporsional saylov tizimi (partiyalar ro'yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanadi.

MAJORITAR SAYLOV TIZIMI

Majoritar saylov tizimi deganda (fransuzcha «majorite» -ko'pchilik so'zidan), vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Bu saylov tizimida qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod mazkur okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Kam ovoz olgan nomzodlar uchun berilgan saylovchilar ovozi «yo'qolib ketadi».

Majoritar saylov tizimi uch ko'rinishi mavjud:

- malakali ko'pchilik ovozli majoritar tizim eng kam uchraydigan tizim hisoblanib, bunda nomzod g'alaba qozonishi uchun saylovchilarning malakali ko'pchilik ovozini olishi zarur, ya'ni 2/3, 3/4 qism ovoz olishi talab etiladi;
- mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimda berilgan ovozlarning umumiyl sonidan mutlaq ko'p ovoz, ya'ni 50 foiz + 1 ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanadi.

– nisbiy ko'pchilikning ovoziga asoslanuvchi majoritar tizim juda qulay hamda sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlarning nisbatan eng ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi.

Bu tizimda davlat yagona saylov okrugiga aylanriladi hamda byulletenlarda



Majoritar saylov tizimining ijobi jihat - saylovchilar bevosita nomzodning shaxsiga e'tibor beradi, u bilan tanishadi, muloqotda bo'ladi va faoliyati yuzasidan aniq nazorat o'tkaza oladi.

Mazkur tizimda o'tkazilgan saylovda g'olib nomzodga yoki g'olib partiyaga berilgan ovozlar miqdori asosan kamchilikni tashkil qiladi, eng achinarlisi, qolgan ovozlar hisobga olinmaydi. Bu esa majoritar saylov tizimining zaif jihatidir. Unda nomzod yoki partiya g'alaba qozonish uchun saylovchilar ko'pchiligidning ovozini olishi lozim. Kamchilik ovoz olsa, nomzod yoki partiya hech qanday mandatga ega bo'lolmaydi. Majoritar saylov tizimi AQSH, aksariyat Lotin Amerikasi mamlakatlari, Fransiya, Angliya, Hindiston kabi rivojlangan mamlakat-

larda muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

PROPORTIONAL SAYLOV TIZIMI

Proporsional saylov tizimi (lot. proportio — nisbat, mutanosiblik) majoritar saylov tizimidan bir asr keyin vujudga kelgan. Dastlab, XIX asr oxirida Shveysariyaning bir qator kantonlarida joriy qilingan, keyinchalik Belgiyada va 1906-yilda Rossiya imperiyasining bir qismi bo'lgan Finlyandyada qabul qilingan. Bugungi kunda ushbu saylov tizimi 60 dan ortiq mamlakatlarda mavjud bo'lib, asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlarda qo'llaniladi.

Bu tizimda davlat yagona saylov okrugiga aylanriladi hamda byulletenlarda

bo'lgan ovozlar soniga bo'linadi. Buning natijasida mazkur partiyaga berilgan deputatlilik o'rinnarining soni kelib chiqadi. Hozirgi kunda G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida saylovlar ko'pincha proporsional tizimda o'tkaziladi. Shuningdek, bu tizim Belgiya, Shvesiya va boshqa ko'p mamlakatlar uchun ham xosdir.

Proporsional saylov tizimining ijobi tomonlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- kamchilikni tashkil etuvchi saylovchilarining ovozlarini ham inobatga olinadi va unda ovoz olgan siyosiy partiyalar ham parlamentdan joy egallaydi;*
- u fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylikning rivojlanishi;*

nishini, shuningdek, davlat bilan fuqarolar o'ttasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlaydi.

Kullas, proporsional saylov tizimining majoritar saylov tizimidan farqi – majoritar saylov tizimida saylovchilar shaxsga ovoz beradi, ya'ni o'sha okrugdan ko'rsatilgan bir nechta deputatlilikka nomzodlardan birini tanlaydi. Proporsional saylov tizimida esa saylovchilar shaxslarga emas, partiyalarga ovoz beradi. Saylovdan so'ng qaysi partiya qancha ovoz olniga qarab, deputatlilik o'rinnarining soniga bo'linadi. Natijada bitta mandat uchun berilgan ovozlar soni ma'lum bo'ladi. So'ng har bir partiya ovgan ovozlar alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu qiymat deputatning bir mandati uchun zarur

ARALASH SAYLOV TIZIMI

Aralash saylov tizimi mohiyatan ikkita tizimning birikmasi bo'lib, bunda mandatlarning bir qismi proporsional tizim bo'yicha (partiyaviy ro'yxatlar bo'yicha), ikkinchi qismi esa majoritar tizim (nomzodga ovoz berish) bo'yicha taqsimlanadi. Aralash saylov tizimida mamlakat saylovchilarining 50 foizi partiyaviy ro'yxatlarga, 50 foizi esa bir mandatli okruglarda siyosiy partiya ko'rsatgan nomzodlarga ovoz beradi. Ushbu saylov tizimlarini birlashtirib turadigan omillardan biri ularning barchasida quyi palata a'zolarining ko'ppartiyaviylik asosida umumalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanishidir. Hozirgi kunda Janubiy Koreya, Belgiya, Vengriya, Qozog'iston, Germaniya va Ispaniya kabi davlatlarda saylovlar aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi.

Mamlakatimizda 2024-yilda o'tkazilishi belgilangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovi aralash, ya'ni majoritar va proporsional saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Bunda 75 nafar deputat, avvalgidek, bevosita saylov orqali saylanadi, qolgan 75 nafar deputat esa saylovda ovgan ovozlar soniga proporsional tarzda partiya bergan ro'yxat asosida tanlanadi.

Bundan tashqari, Saylov kodeksining 70 va 91-moddalariga asosan, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlilikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdori nomzodlar umumiy sonining 30 foizidan 40 foizga oshirildi. Qolaversa, proporsional saylov tizimi bo'yicha ham partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi kerakligi belgilandi. Bu esa gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Bir so'z bilan aytganda, jahon tajribasida o'zini oqlagan aralash saylov tizimi – fuqarolarimizning siyosiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa milliy parlamentimiz faoliyatining rivojlanishi va siyosiy partiyalarning yanada taraqqiy etishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Sirojiddin ABDUVITOVA, Markaziy saylov komissiyasi kotibiysi
Saylov qonunchiligi va zamonaliviy texnologiyalar bo'yicha o'quv markazi yetakchi maslahatchisi.**

Muxbirlarimiz xabar qiladi

QASHQADARYO VILOYATI

Viloyat IIB Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bo'limi tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda zarur bo'ladigan ma'lumotlar bilan ta'minlab kelinmoqda.

Bo'lim xodimlari mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, shahar va tumanlarda sodir etilayotgan jinoyatlarning oylik va kunlik statistikasini tezkorlikda taqdim qilib borishyapti. Asosiyasi, murakkab jinoyatlarning fosh etilishida bo'limdan olinayotgan tegishli ma'lumotlar muhim o'rinn tutmoqda.

Bo'limda «Ustoz-shogird» an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yosh xodimlarning bilim va malakasini oshirishda qo'l kelyapti. Bunda, ayniqsa, bo'lim boshlig'i o'rinnbosari, podpolkovnik Ravshan Rahimov, katta inspektorlar – katta serjantlar Alisher Eshpo'latov va Rustam Rajabovlarning xizmati beqiyos bo'imodqda.



Suratda: bo'lim boshlig'i, leytenant Dilafro'z Majidova, yetakchi mutaxassis, kapitan Bobir Shomardonov va safdar Jahongir Bozorov xizmat paytida.

NAVOIY VILOYATI

MUVAFFAQIYAT KALITI

Bahriiddin (ismlar o'zgartirildi) o'zining yuk mashinasida Samarqand, Jizzax va Surxondaryo viloyatlaridan poliz mahsulotlari olib kelib, bozorlarda chakana savdo qiluvchilarga topshirardi. Odadta qoplar chamasi 2 soatlarda tushirilardi.

Bu gal, shoshganidanmi yoki e'tiborsizligi tufaylimi, mashina salonini ochiq qoldirib,

tarkibida bo'lgan viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markazi bos eksperti, podpolkovnik



avtoturargoh yaqinidagi oshxonaga ovqatlangani bordi. Oradan 15 daqiqalar o'tib, qaytib kelsa, ishchilar hali yukni to'liq tushirib bo'lishmagan. U sotuvchilardan olib, mashina salonida qoldirgan pullarini olaman desa... Naqd 12 million so'mini o'g'irlatib qo'ygan Bahriiddin darhol Navoiy shahar IIBga murojaat qildi.

Voqealoyiga tezda yetib borgan tergov-tezkor guruhi

yuk mashinasida, xususan, rulda qoldirilan barmoq izlarini o'rganishga kirishdi. So'ng olingan izlar bo'yicha maxsus dastur yordamida tadqiqot o'tkazdi. Natijada ular orasida gumon qilinuvchiga tegishli bo'lmagan barmoq izlari ham borligini aniqladi. Shu tariqa, mazkur jinoyatni fosh etishga o'z hissasini qo'shdidi.

Lavhamiz qahramoni Samar-

qand davlat universitetida tahlil olgach, bir muddat Karmana tumani xalq ta'limi bo'limida faoliyat olib bordi. Ichki ishlar organlaridagi ilk xizmatini esa Samarqand viloyati IIB EKBda ekspertlik lavozimida boshladи. U 2009-yildan Navoiy viloyati IIB Ekspert-kriminalistika bo'limda faoliyatini davom ettirdi. O'tgan yillar davomida ko'plab jinoyatlarni fosh qilishda faol ishtirot etdi. Hamisha o'qish-o'rganishni muvaffaqiyat kaliti deb bildi.

Ayni paytda podpolkovnik Hasan Begmatov yosh xodimlarga daktiloskopiya, hujjatlar ekspertizasi, xatshunoslik, trasologiya, qalbaki kupyuralar, aksiz markalari, soxta muhr va shtamlarini aniqlash borasida to'plagan boy bilim va tajribalarini o'rgatib kelmoqda.

Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning hushyorligini oshirish maqsadida turli tashkilot va muassasalarda, aholi o'rtasida o'tkaziladigan targ'ibot tadbirlarida faol qatnashadi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qilish organlarida ekspert-kriminalistika bo'yicha mahorat darslarini tashkil etishga ham hissa qo'shmaqda.

ANDIJON VILOYATI

SHOGIRDLARIGA O'RNAK

Serjant Dilshodbek Sharipov ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2006-yilda boshlagan. U «Asaka» bekatidagi tezkor navbatchilik qismida 10 yildan ortiq xizmat qildi. Shundan so'ng u Andijon viloyati IIB Transport obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasining tezkor navbatchilik qismiga o'tkazildi.



Har kuni «Andijon» markaziy vokzalidan Toshkent, Xiva, Termiz, Qo'ng'irot shaharlari poezdlari jo'natiladi. Navbatchilik qismiga tashqi kuzatuv kameralaridan olingan tasvirlardan tashqari, vokzalda va uning atrofidagi hududda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida tezkor ma'lumotlar keladi. Qahramonimiz hamkasblari bilan hamkorlikda tun-u kun transport obyektlarida xavfsizlikni ta'minlaydi.

U bir necha yillik faoliyati davomida serjant D.Sharipov, katta leytenant J.Rahmonov, safdorlar O.Qodirov va Dilshod Qo'shbayev kabi shogirdlarga ustozlik qildi.

Урок духовности и просвещения

ИЗБИРАТЕЛЬНАЯ СИСТЕМА УЗБЕКИСТАНА

Практика избирательных кампаний современных демократических государств показывает: выборы в парламент – это выборы, в которых непременно участвуют политические партии.

Какие системы существуют?

Избирательные системы в каждой стране устанавливаются с учетом политической активности граждан и исторических особенностей развития.

Мажоритарная система представляет собой такой способ определения результатов голосования, при котором для получения депутатского мандата требуется собрать установленное законом большинство голосов.

Это большинство в свою очередь бывает двух типов: относительное большинство и абсолютное большинство. На основе этой системы формируются представительные органы в 79 зарубежных странах (Великобритания, США, Франция, Канада, Индия и др.). Достоинство системы – простота определения победившего кандидата, недостаток – невысокая представительность голосов.

Пропорциональная избирательная система – способ определения результатов голосования, в основу которого положен принцип распределения мест пропорционально полученному каждой партией числу голосов.

При такой системе образуются большие округа, от каждого из которых избирается несколько депутатов. Часто избирательным округом становится вся страна. Выборы проводятся на партийной основе: голосование идет по партийным спискам, население голосует не за конкретных кандидатов, а за политическую партию. Преимуществом данной системы можно признать стимулирование развития политических партий, которые представляют собой один из базовых институтов гражданского общества.

Пропорциональная избирательная система действует в 75 зарубежных странах (Австрия, Италия, Бразилия, Нидерланды, Швеция, Финляндия, Турция, Израиль и др.).

О смешанных избирательных системах говорят в том случае, если при выборах одного и того же представительного органа (палаты) применяются разные избирательные системы. При этом стремятся соединить их преимущества и по возможности исключить или компенсировать их недостатки.

Смешанная избирательная система применяется в 36 странах мира (Япония, Германия, Венгрия, Новая Зеландия, Бельгия, Мексика, Испания, Республика Корея, Украина, Казахстан и др.).

Смешанная избирательная система способствует активизации деятельности политических партий, непосредственному участию их в формировании парламента, и, в итоге, побуждает их стать активными инициаторами принятия законов и решений государственной важности.

О чем говорит закон?

Предложение палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан и политических партий о введении смешанной избирательной системы было одобрено главой государства в 2023 г. Внедрение данной системы – важный шаг на пути демократизации общества.

Конституционный закон «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты

округов по мажоритарной избирательной системе, а остальные 75 – по единому избирательному округу на основе пропорциональной избирательной системы (то есть по списку кандидатов, сформированному политическими партиями).

Как распределяются мандаты?

В выборах, проводимых в Законодательную палату и местные Кенгаши по одномандатным избирательным округам, изби-

семь и более процентов голосов избирателей, принявших участие в этих выборах.

Распределение депутатских мандатов между депутатами, избранными по списку партии, осуществляется в соответствии с очередностью кандидатов в депутаты, включенных в список партии, зарегистрированный Центральной избирательной комиссией.

Преимущества смешанной избирательной системы

Среди преимуществ смешанной системы можно отметить следующие.

Максимальный учет голосов избирателей. Так, партии, не добившиеся успеха на основе мажоритарной избирательной системы, в смешанной системе получают возможность для обретения депутатских мест прямо пропорционально поданным за них голосам избирателей, применяя элемент пропорциональной системы.

Данная избирательная система, с одной стороны, **побуждает укреплять связи кандидатов в депутаты с политическими партиями, а с другой – стимулирует политические партии на поиск и агитацию политически грамотных и активных граждан к вступлению в свои ряды.** Таким образом смешанная избирательная система **усиливает конкуренцию между идеологическими программами политических партий.**

Также в качестве преимущества смешанной избирательной системы следует признать **упрощенную систему заполнения вакантных мест депутатов.** Они заполняются кандидатами из зарегистрированных списков политических партий, представленных на выборах. Это сокращает расходы государственного бюджета, связанные с организацией и проведением дополнительных выборов.

Новая избирательная система увеличит возможности граждан выбирать кандидатов в депутаты Законодательной палаты как по индивидуальным предпочтениям – голосование за определенного кандидата, так и по общественно-политическим предпочтениям – голосование за определенную партию, таким образом расширятся возможности граждан для участия в государственном управлении.

Дмитрий РАХМАНОВ,
главный научный сотрудник
Института парламентских
исследований при
Законодательной палате
Олий Мажлиса.



Республики Узбекистан, направленных на дальнейшее совершенствование порядка проведения выборов и референдума» от 18 декабря 2023 г. предусматривает проведение выборов депутатов Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан на основе смешанной избирательной системы (мажоритарной и пропорциональной).

В соответствии с Законом часть депутатских мандатов распределяется по мажоритарной, а другая часть – по пропорциональной избирательной системе.

Законом определено, что избирательные округа разделены на одномандатные и единый избирательный округа, при этом 75 депутатов Законодательной палаты избираются от одномандатных

районов один депутат от каждого избирательного округа. Избранным считается кандидат, получивший по отношению к другим кандидатам наибольшее число голосов избирателей, принявших участие в голосовании по одномандатным избирательным округам.

Политические партии, получившие не менее семи процентов голосов избирателей, принявших участие в голосовании по единому избирательному округу на выборах в Законодательную палату, обретают мандат в следующем порядке.

Места депутатов Законодательной палаты, избираемых по единому избирательному округу, распределяются между политическими партиями, набравшими

VATANNING GO'ZAL MASKANLARI



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Ushbu turistik zona dengiz sathidan 1700 metr balandlikda joylashgani va noyob tabiiy yarimsharsimon archalari bilan mashhur. Bu hududda ilmiy tasdiqdan o'tgan 600 yoshdan boshlab, mutaxassislarining taxminiga ko'ra, 2800–3000 yoshgacha bo'lgan archalar mavjud. Ma'lumki, archa daraxti o'zidan juda ko'p kislorod chiqaradi. Ayniqsa, erta tongda ushu archazorlar inson nafas yo'llari uchun eng foydali azon moddasi bilan to'yingan bo'ladi. Dam oluvchilar mana shu shifobaxsh ekologik ob-havodan nafas olishadi. Bundan tashqari, sof ekologik toza buloq suvlari inson organizmiga juda foydalidir.

Dam oluvchilar xavfsizligini ta'minlash, ularning ko'ngilli hordiq chiqarishini ta'minlash uchun Zomin tumani IIB sohaviy xizmat xodimlari kecha-yu kunduz mavsumiy kuchaytirilgan xizmatni yo'liga qo'yishgan. 2024-yil 1-iyun kuni «Zomin» turistik-rekreatsion zonasiga tashrif buyurgan Hindistonning Alapusha Karela shahrida tug'ilgan Nazeyer Salmon ismli chet el fuqarosi o'zini yomon his qilganligi sababli hududda xizmat olib borayotgan tuman IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'limi JTSG katta inspektori, leytenant Otabek Xoliqovga murojaat qilgan. Qon bosimi oshgan sayyohga zudlikda birinchi tibbiy yordam ko'rsatilib, zarur choralar ko'rildi.

Hushyorlik va chaqqonlik bilan xizmat burchini bajarayotgan bunday xodimlar talaygina. Xususan, tuman IIB XTTB JTSG katta inspektori, kapitan Azamat Pardaboyev, HPG profilaktika katta inspektori, katta leytenant Shohruh Abdulahatov, tuman IIB boshlig'i o'rinosi, XTTB boshlig'i, mayor Bobur Boymuradovlar hamkasblariга o'rnak bo'limoqda.

Turistik zona xavfsizligini to'laqonli ta'minlash maqsadida Jizzax viloyati IIB JXX JTSB PPXB xodimlari ham munosib xizmat olib borishmoqda. Jumladan, safdorlar Muzaffar Eshpo'latov, Sherli Jumanov, Shahzod Abdurahmonov va Sardor Umirovlarni safdoshlariiga namuna qilib ko'rsatish mumkin.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.

Suratlarda: «Zomin» turistik-rekreatsion zonasiga faoliyatidan lavhalar.

Jizzax viloyati.





YO'LOVCHILAR XAVFSIZLIGI TA'MINLANMOQDA

Buxoro viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari xizmat hududidagi temir yo'lning umumiy uzunligi 555 kilometrdan ziyodroq bo'lib, 24 ta bekatni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, soha xodimlari «Buxoro» xalqaro aeroportida ham xizmat qilishadi.

Aholi o'rtasida muntazam ravishda har hafta chorshanba kuni «Temir yo'llarda xavfsiz kun» hamda payshanba kunlari «Profilaktika kuni» tadbirlari, suhbatlar va uchrashuvlar o'tkazilyapti.

Tadbirlarda asosan aeroport va temir yo'llarning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, ushbu ob'yektlarga shikast yetkazish javobgarlikka sabab bo'lishi, temir yo'l atrofida yosh bolalarni qarovsiz qoldirish, unga yaqin joyda chorva mollarini boqish mumkin emasligi fuqarolarga tushuntirib kelimoqda. Mazkur qoida va talablarga rioxha etmaslik

qanday ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi xususida hayotiy voqealar keltirib o'tilmoqda.

Bundan tashqari, profilaktika inspektorlari tomonidan aeroport va temir yo'l kesishmasiga yaqin joylashgan uylar o'rganilib, xonadon egalariga yuqoridagi tartib-qoidalarga amal qilish lozimligi eslatib turilibdi. Shuning uchun ham tadbirlar chog'ida ko'plab jinoyat va huquqbazarliklarning oldi olinganini alohida ta'kidlash lozim. Raqam bilan aytadigan bo'lsak, o'tgan oydar davomida aynan Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmasi xodimlari



tomonidan 218 ta ma'muriy holat aniqlandi. Shundan 10 tasida voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ta'lim berish majburiyatini buzgan ota-onalar ma'muriy jarimaga tortilgan. Qolaversa, temir yo'l korxona va tashkilotlarida mayda tashmachilik bilan shug'ullanib yurgan 6 nafr shaxsga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlandi.

Shu yilning 12-aprel kuni «Buxoro-Miskin» temir yo'l yo'nalihsining 4013 kilometrida temir yo'l izlari atrofiga o'rnatilgan 11 dona temir to'siqilar noma'lum shaxs-

lar tomonidan olib ketilganligi aniqlandi. Olib borilgan tezkor surishtiruvlar davomida ushbu huquqbazarlikni Romitan tumanida yashovchi Sh.B. ismli shaxs sodir etganligi aniqlanib, holat yuzasidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi. Huquqbuzarga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasiaga asosan, qonuniy chora ko'rildi.

Rasul HUSENOV,
podpolkovnik.

Buxoro viloyati.

BIRINCHI ISHIM KECHAGIDEK YODIMDA – deydi mayor Jasurbek Mirzayev

Darhaqiqat, har bir tergovchi o'zi tergov qilgan birinchi jinoyat ishini umrining oxirigacha esdan chiqarmaydi.

– IIV Akademiyasini tamomlab, Paxtaobod tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasida tergovchi sifatida ish boshladim, – deydi Andijon viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, mayor Jasurbek Mirzayev. – Bo'linma boshlig'i, mayor Botirjon Jabborov mena ustozlik qilgan. Bir kuni u meni xonasiga chaqirib, qo'limga yupqagina yig'majildni tutqazdi.

– Sizga bir og'ir jinoyat ishini mustaqil tergov qilishni topshiranman. Barcha ma'lumotlar shuning ichida, – dedi u yig'majildni qo'limga tutqazib.

O'z xonamga qaytib, yig'majildni ochdim. Unda birgina qog'oz bor edi. Bu chegara zastavasi boshlig'ining bildirgisi bo'lib, unda chegara naryadi o'ziga biriktirilgan hududni aylanib chiqish chog'ida qo'shni davlatdan mamlakatimiz hududiga o'tmoqchi bo'lgan qoidabuzarni aniqlagani yozilgandi. U chega-

rachilarni ko'rib, bir zumda Paxtaobod tumani hududiga kirib g'oyib bo'lgan, biroq mo'ljalangan o'tish joyida elektr lampochkalari to'ldirilgan 8 ta qopni qoldirib ketgan...

Lampochka solingen qoplar ashyoviy dalillar omborida saqlanardi. Ma'lum bo'lishi-chaga, qoplarda Qirg'izistonidagi «Mayluv-Su» elektr lampalar zavodida ishlab chiqarilgan sakkiz mingdan ziyod lampochka bo'lgan. Chegaradan o'tib kelgan kishining shaxsini aniqlash kerak edi. Ishni nimadan boshlashni bilmasdim. Yordam so'rab katta tergovchi kapitan Alijon Mirzayevga murojaat qildim.

– Uyali aloqa kompaniyasiga biling so'rovi jo'natib, o'sha paytda bu hududda kim bo'lganini aniqlash lozim, – deya maslahat berdi u.



Biling so'roviga ko'ra, o'sha paytda voqeasodir bo'lgan joy atrofida 700 ta telefon raqami qayd etilgani to'g'risida ma'lumotnomasi berildi. Sinchkovlik talab qiladigan vazifa-ga kirishdim. Ish davomida shubha uyg'otmagan telefon egalari ro'y-xatdan chiqarildi. Natijada shu atrof-

dagi mahallada yashovchi Husniddin P. gumonlanuvchi sifatida qo'lg'a olindi. Unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Yigit tergovni chalg'itmoqchi bo'ldi, ammo uddasidan chiqqa olmadidi. Uning aybi to'liq isbotlandi va bu ish sudga oshirildi.

Bundan keyin ham juda ko'p jinoyat ishlarini tergov qilishimga to'g'ri kelgan. Ularni muvaffaqiyatli tugatishimda ustozlarimning hissasi katta bo'lgan.

Jasurbek Mirzayev Paxtaobod va Xo'jaobod tumanlari IIB tergov bo'linmalarida tergovchi bo'lib ishlagan. Xizmat yillari davomida bugungi kunda viloyat IIB tergov bo'linmalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan tergovchilar – kaptanlar Mustafa Mamasoliyev, Otabek Qo'chqorov, Mirsaid Rasulov kabi bir qancha munosib shogirdlarni tayyorladi.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



КИБЕРПРЕСТУПНОСТЬ: КАК НЕ ПОПАСТЬСЯ НА УЛОВКИ МОШЕННИКОВ?

В современном мире кибербезопасность стала одним из наиболее актуальных вопросов, особенно в контексте ускоренного цифрового развития. Возросшее количество онлайн-транзакций и взаимодействий делает нас более уязвимыми перед киберугрозами.

Быть осведомленным о разных видах мошенничества и уметь защищать личные данные становится необходимостью. В этом контексте представляется критически важным как разделить настоящую информацию от ложной, так и быть готовым к разным сценариям, чтобы обезопасить себя и свои средства.

Социальные сети стали не только площадкой для общения, но и для распространения ложной информации «специалистов», обещающих «помощь в возврате средств». На самом деле за такими предложениями скрываются кибермошенники, стремящиеся получить доступ к личным данным и банковским счетам граждан. В социальных сетях распространяются разные сообщения, в которых предлагаются услуги «квали-

фицированных юристов», которые обещают помочь возместить средства гражданам, потерпевшим от уловок мошенников.

Центр по борьбе с киберпреступлениями при Министерстве внутренних дел Республики Узбекистан предупреждает граждан не поддаваться на подобные уловки мошенников, цель которых получить ваши личные данные и завладеть средствами. Чтобы обезопасить себя вы можете проверить достоверность нужной ссылки (страницы) через официальный сайт <https://www.fake.cyber102.uz>.

...Житель Шайхантахурского района столицы стал жертвой мошенников, которые через мессенджер Telegram рассылали фейковые ссылки. Гражданин Б. Р. обратился в ОВД с заявлением о факте спи-

сания 11.719.000 сумов с его банковской карты и присвоения их неизвестным лицом.

Сотрудниками было выявлено, что преступление совершено 20-летним гражданином Х. З., проживающим в Ферганской области.

В отношении Х. З. было возбуждено уголовное дело.

В мире, где технологии играют все более значимую роль, кибербезопасность становится неотъемлемой частью нашей повседневной жизни. Будьте бдительны, осведомлены и обучены, чтобы избежать столкновений с киберпреступниками. Проверяйте подозрительные сообщения и ссылки, следите за актуальными новостями в области кибербезопасности в официальных источниках.

Нилуфар АРИПОВА.



MUNAJJIMLAR BASHORATI (10-iyundan – 16-iyungacha)



Qo'y. Haftaning birinchi yarmi biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofdagilar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Hafta so'ngida kayfiyatning ko'tarilib, qo'l urgan ishlaringiz oson va yengil hal bo'la boshlaydi. Dam olish kunlarini oila davrasida o'tkazish tavsiya etiladi.



Buzoq. Jamoatchilik ishlarini shaxsiy hayotining bilan birga olib borishga harakat qiling. Xizmatdoshlar uchun umumiy manfaatlarni ko'zlovchi insonga aylaning. Jizzakilik va ta'sirchanlikni unuting, faqat shundagina muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin.



Egizaklar. Osoyishtalik va farog'at uyg'unligini buzmaslik uchun har qanday vaziyatda o'zingizni tutib, og'irroq bo'lishga harakat qiling. Bu davr yangi rejalar tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini izlash uchun juda quay.



Qisqichbaqa. Ayni davr o'zingizga vaqt ajratish uchun quay vaqtdir. Ishda rag'batlan-tirish olish yoki lavozimingiz ko'tarilishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun har bir ish-harakatni yaxshilab o'ylab ko'rib, so'ngra amalga oshiring. Dam olish kunlari imkon qadar oila davrasida hordiq oling.



Arslon. Shu haftada o'rnatilgan munosabatlar muvaffaqiyatli va yuqori darajada kechadi. Ammo yangi ishlarga kirishish uchun bu davr to'g'ri kelmaydi. Moliyaviy masalalarda tejamkor bo'ling, chunki belgilangan maqsadlarga erishish uchun pul jamg'arish zarur.




Parizod. Kirib kelayotgan haftada sizni yangi taassurotlar va yorqin his-tuyg'ular kutmoqda. Salomatlikka jiddiy e'tibor qaratib, o'zingizga biroz dam bering va kelgusi uzoq muddat uchun kuch-quvvat yig'ing – bu sizga hozir juda zarur. Oila a'zolaringizga ko'proq vaqt ajratishga harakat qiling.



Tarozi. Hafta boshi faol va qat'iy harakatlarni talab etadi. Yangi tanishuvlar nafaqat foyda olib keluvchi aloqlarni o'rnatish, balki ajoyib insonlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ishbilarmo-odamlar uchun bu hafta omadli keladi. Hamkasblar bilan munosabatlar mustahkamlanadi, lekin oilaga yanada ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi.



Chayon. Hafta boshi og'ir va muammoli kechadi. Bu kunlarda beparvolik tufayli xatoga yo'l qo'yishingiz mumkin. Har qanday janjal va tortishuvlardan uzoq turib, hech kim bilan nizo-ga bormaslikka harakat qiling. Haftaning so'nggi kunlarini oilangizga bag'ishlab, sokinlikda o'tkazing.



O'qotar. Dushanba va seshanba kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, shu kunlarda sar-moyal takliflar olishingiz mumkin. Ayni hafta faol harakatlar davri bo'lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish uchun yaxshi imkoniyatdir. Hordiq kunlarida barcha uchrashuvlarni bekor qilib, vaqtini huzur va halovatda o'tkazgan ma'qul.



Tog' echkisi. Mazkur hafta siz tanlagan yo'l to'g'ri va samarador ekanini ko'rsatadi. O'z mablag'laringizni natijali loyihalarga sarflang. Fikr-o'ylaringizni quloq tutib harakat qiling, ular chinakam yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Lekin chetdan aytilgan foydali maslahatlarni ham be'etibor qoldirmang.




Qovg'a. Shu kunlarda sizdan hamjisman, hamruhan bardoshli bo'lish talab etiladi. Kutilmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu davrda his-hayajonlaringizni boshqarib, imkon boricha bosiqlik bilan harakat qiling. Hafta so'ngiga borib barcha masalalar birin-ketin hal bo'lib, xotirjam dam olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



Baliq. Ba'zi ishlar ko'ngildagidek ketmayotgan bo'lsa, shoshilmang, tez orada bularning hammasi yaxshilikka bo'lganini anglab yetasiz. Shaxsiy hayot borasida hushyor va sinchkov bo'lgan ma'qul. Bu hafta ish bilan bog'liq uchrashuvlar uchun muvaffaqiyatli davrdir.


IZQUVAR KUNDALIGIDAN

Iste'fodagi podpolkovnik Sodiq Hafizov 1961-yil Buxoro tumani O'zbekiston qishlog'ida tug'ilgan. 1985-yil Toshkent o'rta maxsus militsiya maktabini tugatgan. Shuningdek, BuxDUNing tarix hamda SamDUNing huquqshunoslik fakultetlarida sirdan tahsil olgan. Chorak asr mobaynida Buxoro shahar va viloyat IIBda jinoyat qidiruv yo'nalishida tezkor vakildan bo'lim boshlig'igacha, shuningdek, Qorako'l, Jondor va Peshku tumanlarida IIB boshlig'i, Buxoro shahar IIB boshlig'ining birinchi o'rribosari hamda boshliq vazifasini bajaruvchi lavozimlarida samarali xizmat qilgan. Faoliyati davomida yuzlab jinoyatlarning «issiq izida» fosh etilishiga munosib hissa qo'shdi. Quyidagi jinoyat tafsilotlari shulardan ayrimlaridir.



LEZVIYE MASHMASHASI

Romitaniq Ilyosxo'ja azonlab sartaroshxonani yig'ishtirdi, eshik-derazalarini ochib qo'ysi. Arikdan suv olib, supachaga shakarob sepayotganida sartaroshxona oldida «Jiguli» avtomashinasini shitob bilan to'xtadi. Mashinadan oliftanamo yigit tushgach,unga peshvoz chiqdi.

- Keling, xizmat?
- Sizga bir foydali ish taklif qilmoqchiman, - dedi yigit atrofga bir qur ko'z yogurtirib. - «Vosxod» lezviyasini qanchadan olyapsiz?
- 1 so'mu 50 tiyindan, - dedi Ilyosxo'ja narxini olayotganidan sal tushirib.
- Men aynan shu lezviye ishlab chiqaradigan korxonaning



ombor mudiriman. Ismim Eshnazarjon. Siz yashigi bilan olaman desangiz, 1 so'mu 20 tiyindan beraman. Agar ikki-uchta odam topsangiz, yana arzon qilaman.

Bunday savdoni eshitgan Ilyosxo'ja shoshib qoldi. Ammo ishonch hosil qilish maqsadida yana so'radi.

- Ishonavering, aka. Bizda aldash bo'lmaydi. Faqat mahsulotlarimiz korxonada. Siz hamkasblaringiz bilan maslahatlashib, ko'ndirsangiz, keyin birga borardik, - dedi Eshnazar o'ta xotirjamlik bilan.

Ilyosxo'ja unga ishondi va mehmonni qo'shni qishloqlik hamkasblari oldiga yetaklab bordi. Ular birpasda 550 so'm pul yig'ib, Eshnazarqa berishdi. Eshnazar esa Ilyosxo'ja va uning ikki tanishini Buxoro shahriga olib ketdi. Avtomashina qarovsiz bir korxona oldida to'xtagach, yigit mashina egasiga xizmat haqini berib: «Hozir chiqaman», deya ichkariga yo'l oldi. Haydovchi vaqtim ziq, degach, Ilyosxo'ja unga javob berib yubordi...

Ilyosxo'ja va uning ikki kasbdoshi roppa-rosa uch soat kutishdi. Oxiri sabri chidamagan hamkasblardan biri qorovulkona tomon odimladi. U ko'p o'tmay, kapalagi uchdi. «Bunaqa odam bu yerda ishlasmagan». Ilyosxo'janing qulog'iga boshqa gap kirmadi. Chunki 1988-yil hisobida yig'ilgan pulning qurbi katta edi.

...O'shanda To'qimachilik tumani IIB JQB katta tezkor vakili vazifasida xizmat qilayotgandim. Boshlig'imiz bergen topshiriq asosida tezkor qidiruv va surishtiruv ishlarini olib bordik. Ikki kundan keyin xuddi shunday holat Jondor tumani «Zarafshon» jamoa xo'jaligi hududida ham sodir bo'Igan. Firibgar yana uch kishini chuv tushirib ketgan. Ikkala holat ham bir xil, faqat korxona bilan ism-shariflar boshqa-boshqa edi. Lekin bu safar jabrlanuvchilar haydovchini garovga olishadi. U bilan suhbatlashganimda hech narsa oydinlashmadidi. Chunki uni xizmat haqi evaziga yollashgan bo'ladi.

Jabrlanuvchilarning ko'rsatmalari asosida fotorobot tuzildi. Buni qarangki, firibgar ziyoli va taniqli kishining o'g'li ekan. Uning uyida tintuv o'tkazilganda, bir necha fuqarolarning telefon raqamlari yozilgan daftarcha chiqdi. Shu daftarcha orqali yana sakkiza ochilmagan jinoyat fosh etildi.

O'G'RILIKNI GAZETA FOSH QILDI

1986-yil 28-iyun kuni Buxoro shahri O'zbekiston 50 yilligi ko'chasidagi 6/1-uyning 39-xonadonida sodir etilgan o'g'rilik jinoyati bo'yicha tezkor qidiruv va surishtiruv ishlarini olib borayotgandik. Beshinch va to'rtinchi qavat o'rtasidagi zinada «Izvestiya» gazetasini g'ijimlangan holda yotardi. Meni qiziqtirgani gazetadagi «R-19» yozuvi edi. Harbiy xizmatdan oldin bir muddat Buxoro shahar pochta bo'limida faoliyat ko'rsatgandim. Shu bois pochta bo'limida 23 ta aholiga xizmat ko'rsatadigan shoxobcha borligini bilardim. Ishni aynan shundan boshladim.

12 ta shoxobchadagi xat tashuvchi bilan suhbatlashdim. Birortasi bu gazetani bilmaskan. Zorkin familiyali pochtachi esa darrov yozuvini tanidi. Bu «Romitan ko'chasi, 19-xonadon»ni anglatishini va ushu xonadonda Salim Shukurov ismli shaxs yashashini aytadi. Kunduzi uy egasi bo'lmagan uchun gazetani «Jiguli» rusumli avtomashinasiga qistirib qo'yanini ham qo'shimcha qildi. S. Shukurov «Buxorotaksomotor» markazida haydovchi bo'lib ishlarkan.

Uni so'roqlab borganimizda ta'tilga chiqib, sihatgohga dam olishga ketgan ekan.

Shundan so'ng mashinani kim boshqargan, degan savol ko'ndalang qo'yildi. So'rab-surishtirsak, ukasi Halim ba'zan avtomashinani haydarkan. U ham shu korxonada qorovul bo'lib ishlaydi, deyishdi. Halim bilan uchrashdik. U gazetani ko'rib, Shavkat ismli o'rtog'i mix qo'porgichni aynan shu gazetaga o'rab ketganini va uning yashash manzilini aytди. U 5-mitti tuman Abdurahmon Jomiy ko'chasidagi 1/1-uyning 34-xonadonida istiqomat qilarkan.

Erta tongda ko'p qavatli uylar oldidagi o'rindiqlardan biriga o'tirib, uni kuta boshladim. Soat o'n larga yaqinlashganda chiqib keldi. Yaqinlashgach, o'zimni tanishtirib, qo'liga kishan soldim...



BIR JINOVAT IKKINCHISINI OCHDI

1998-yil 20-may kuni Buxoro tumani IIBdan yosh tezkor vakil xizmat safari bilan keldi. O'shanda viloyat IIB JQB boshlig'i o'rribosari lavozimida ishlardim. Ma'lum bo'lishicha, sakkiz kun avval bir haydovchi bulung'urlik mijozni Qorako'l tumaniga olib kelgan, lekin manziliga qaytib bormagan ekan.

Darrov viloyat, Qorako'l hamda Olot tumani IIB tezkor vakillarini oyoqqa turg'azdik. Barcha imkoniyatlarni ishga soldik. Gu-monlanuvchilarni birin-ketin so'roq qildik. Ko'p o'tmay, qorako'lilik Ravil ismli shaxs ham gumonlanuvchi sifatida olib kelindi. Avvaliga o'zini hech oldirmadi. Yo'qolgan avtomashinani kimga sotgani aniqlanganini va u o'z vaqtida qilmishini bo'yniga olsa, jazosi yengillashishni aytganidan keyin rostiga ko'chdi.

Uning ko'rsatmasi asosida Qorako'l tumanidagi qabristonlardan birining



chetiga ko'milgan qabr ochildi. Ammo murda boshqa kishiniki bo'lib chiqdi. Chunki u sasib chiriy boshlagan edi. So'ng murda bo'yicha so'roq qilganimizda, u avvalgi qotilligini ham tan oldi. Bu qotillik 3-4 oy muqaddam poytaxtdan yollangan qashqadaryolik haydovchiga nisbatan sodir etilgan. U ham bo'g'ib o'ldirilgan va ustiga axlat tashlab ko'milgan edi. Noiloj Ravil ikkinchi jasadni qayerga ko'mganini aytadi.

Ma'lum bo'lishicha, qotillar bulung'urlik haydovchi-

ning «Jiguli»sin 600 AQSH dollariga Buxoro shahrida sotib yuborishgan. Onasining aytishicha, haydovchi gung bo'Igan va mashina to'shamasi tagida pul jamg'armasi borligini bildirgan. Haqiqatan ham, to'shamma tagida 50 ming so'm naqd pul bo'Igan. O'sha paytda bu pulning ham qadri baland edi. Shu tariqa, Ravil va uning jinoiy sheriklari ham qo'iga olindi.

**O'z muxbirimiz
Mirzoqul AHADOV
yozib oldi.
Buxoro viloyati.**

 QOROVUL QO'SHINLARIDA

OTA-ONAM DUOSIDAN KUCH OLAMAN

– deydi oddiy askar Azizbek Hakimov

Oilada o'g'il farzand dunyoga kelganida, ota-onam himoyachim, qalqonim, deya quvonishadi. Ana shunday ishonch bilan ulg'aygan yigit, al-batta, oilasi, o'zi tug'ilib o'sgan ona Vatanini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga harakat qiladi. Lavhamiz qahramoni oddiy askar Azizbek Hakimov ham ana shunday o'g'londan biri.



Asli Termiz shahrida voyaga yetgan Azizbek yoshlidan mashina haydash, ta'mirlashga qiziqardi. Boisi ota-

si Ilhom aka uzoq yillardan buyon Termiz shahrida haydovchi-instruktur bo'lib, yoshlarga kasb sirlarini o'rgatib kelmoqda. Yigitlik burchini o'tash davrida Azizbek chinakamiga toplandi. Aynan o'sha kezlarini umrini ona Vatan himoyasi yo'lida bag'ishlashga qat'iy ahd qildi.

Niyati amalgalashga oshib, IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy viloyatidagi 7551-harbiy qismda shartnoma assosida xizmatni boshladi. Muntazam tarzda suzish, velosport, yugurish bilan shug'ullani-

shi ko'plab musobaqlarda g'oliblikni qo'lga kiritishiga zamin bo'ldi. Yaqinda Samarkand viloyatida bo'lib



o'tgan triatlon bo'yicha mu-sobaqada faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Hozirda Azizbek harbiy qism avtomobil guruhi haydovchisi. U o'ziga biriktirilgan mashinani doimo texnik soz holatda tutadi.

Guruh komandiri, serjant Hamid Abdullayev bilan bir-

galikda yuk mashinasiga texnik xizmat ko'rsatish, nosozliklarni aniqlash va ta'mirlash kabi ishlarni bajarib, tajriba orttirmoqda. Shu bilan birga, Termiz davlat universitetida jismoniy madaniyat yo'nalishida sirtidan tahsil olmoqda.

– Ota-onam Termizda ya-

shaydi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Har yili imkon bo'lishi bilan ularni ko'rgani borib turaman. Zero, masofa uzoq bo'lsa-da, dil yaqin, ularning mehri, duosi va ishonchidan kuch olaman.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

 MAHALLA TARIXIDAN

KAMOLON – KOMIL INSONLAR MASKANI...MI?

«Kamolon» mahallasi Beshyog'och dahasidagi qadimi maskan hisoblanadi. Tarixan «Darxon», «Eshonguzar», «Yangimahalla», «Samarqand darvoza», «Guliston» mahallalari bilan chegaradosh bo'lib, Xo'jako'cha va Fuqaro ko'chalariga bo'lin-gan. Mahallada Xo'ja Alambardor maqbarasi va qabristoni bor. Qadimda qariyb 200 xonardon yashagan. Aholisi asosan o'zbeklar bo'lib, hunarmandchilik, savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlari (Novza, Qozirobod, Do'mbirobod, Qonqus mavzelari)da dehqonchilik bilan shug'ullangan.

«Kamolon» nomi haqida turli fikrlarni ilgari surishadi. «Kamolon» so'zining lug'aviy ma'nosi – komil insonlar yashaydigan yer.

«Kamolon» atamasi haqida yana bir fikrga ko'ra, bu so'z «Kamon-daron», ya'ni kamonchilar mahallasi ma'nosini beradi. Ma'lumki, qadimda Choch o'zining kamoni, kamon-chi ustalari bilan dunyoga mashhur bo'lgan. «Hudud ul-olam»da (X asr) «Choch – bu katta viloyat, xalqi jangovar va saxiydir. U yerda kamon va o'q-yoy yasaladi», deya qayd etilgan. Shoshda yasalgan kamon o'sha vaqtarda butun Sharqda

«Kamoni Shoshiy» nomi bilan mashhur bo'lib, uning uzoqqa otilishi va nishonga aniq tegishi Sharq mualliflarining asarlarida ta'riflangan.

Man shu ustalar yashaydigan mahalla «Kamondaron» deb atalgan. Choch kamonlari xorijiy davlat-larga ham sotilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, buyuk sohibqiron Amir Temur Toshkentda bo'lganida «Kamolon» mahallasida yasalgan kamonlarning puxtaligiga tan berib, o'z qo'shinlarini u bilan ta'minlashga buyruq bergan.



Chor Rossiysi qo'shinlari Markaziy Osiyoni bosib olishga kirishgani-da Toshkentga Kamolon tepaligi va Kamolon ko'chasi bo'ylab hujum qilgan. Kamolon ko'chasing har ikki tomoni XX asr 60-yillari oxirida ham vayrona holda saqlangan. Bu kamolonliklar bosqinchilarga qanchalik qattiq qarshilik ko'rsatgani dan dalolat beradi.

Mahalla hududida joylashgan Kamolon ko'chasi Toshkent shahri ning eng qadimi ko'chalaridan biri. Dastlab nomsiz bo'lgan. 1893-yilda Kamolon nomi berilgan. 1992-yildan Toji Rasulov nomi bilan yuritilgan. 2008-yil 6-mayda joyning tarixiy nomi qayta tiklanib, ko'chaga Kamolon nomi berilgan.

«Toshkent» ensiklopediyasi
asosida tayyorlandi.



Внутренний туризм

Трехдневную поездку в Хорезмскую область для сотрудников организовали руководство ГУВД и комитет Объединенного профсоюза работников внутренних дел Ташкентской области.



— Это мое первое посещение Хорезмской области, — говорит майор Сарвар Умаралиев из Ахангаранского района. — Особое впечатление произвело исторический комплекс Иchan-кала. Неповторимые архитектурные памятники древней Хивы восхищают. В поездку мы отправились вместе с членами семьи. Выражаю признательность руководству ГУВД и Объединенному профкому за организацию столь познавательной экскурсии.

— В поездке я вместе с мамой, — рассказывает майор



Одилжон Турсунов из Ташкентского района. — Нас разместили в комфортабельной гостинице. Группу сопровождали квалифицированные гиды. Мама благодарна организаторам экскурсии, желает им успехов в благородном деле.

За три дня 50 путешественников посетили достопримечательности Хорезма, содержательно провели время.

**Охунжон МУСТАФОЕВ,
лейтенант.**



Мои дети — моя опора

■ Бухарская область

Крепкая семья со здоровой нравственной средой — определяющий фактор в воспитании личности. Помочь подрастающему поколению постигать сложную науку жизни — главная задача родителей.

Будучи сотрудником органов внутренних дел, сам выработал привычку следовать распорядку, ценить дисциплину. Профессия эта подразумевает большую ответственность, ведь работник правоохраны всегда на виду. Рассчитывал, что со временем и дети проявят интерес к ней. Рад, что надежды оправдались.

Старший сын, Исломбек, учится на третьем курсе юридического факультета Термезского государственного университета. Второй сын, Иброхимжон, заканчивает Бухарский академический лицей МВД. Он мечтает поступить в Академию МВД. Младшая дочь, Анбарбегим, перешла в шестой класс. Возможно она пойдет по стопам матери и станет учительницей.

Сыновья растут целеустремленными, добиваются всего собственными силами. Исломбек занимался плаванием и греко-римской борьбой.

Иброхимжон предпочитает плавание и вольную борьбу. Оба становились победителями городских и областных соревнований. Достижения Иброхимжона тоже обнадеживают. В минувшем году получил сертификат уровня B2 по английскому языку, создав задел для поступления в вуз. Активно участвовал в команде лицея «Заковат», внося достойный вклад в ее победы на протяжении двух лет. В феврале текущего года в соревнованиях по показательным выступлениям среди академических лицеев республики стал победителем.

Я спокоен за семью, за будущее детей. Независимо от того, по какой стезе пойдут, уверен, они станут достойными гражданами страны.

**Илхом РУСТАМОВ,
старший сержант.**

На снимке: лицей Иброхимжон Исматов с отцом.



XIZMATDAN TASHQARIDA

CHIROYLI TURMUSH KAFOLATI

Xalqimiz tilida bot-bot yangraydigan «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik» naqlining isbotini ikki yildirki, sayyohlarni o'ziga maftun etuvchi go'zal va betakror So'qoq qishlog'ining 3 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladigan «Chinor» mahallasiga fidoyilik bilan xizmat ko'rsatayotgan kapitan Xayrulla Jumanov misolida ko'rish mumkin.

Chinorliklar asosan dehqonchilik va tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. Mahallaga kirib borarkansiz, birorta bekorchiga ko'zingiz tushmaydi. Har kim o'z ishi bilan mashg'ul. Shu bois «yashil» toifadan joy olgan mazkur hududda joriy yil boshidan bugungacha birorta jinoyat sodir etilmadi.

Bularning barchasi kapitan X. Jumanovning mahalla «yettiligi» bilan hamkorlikda olib borayotgan sa'y-harakatlari evaziga qo'lga kiritilmoqda.

Doimo odamlar bilan gav-jum bo'ladigan ushbu hudud-

dagi dam olish maskanlarning barchasiga videokuzatuval kameralar o'rnatilib, ular to'g'ridan-to'g'ri inspektoring xonasiga integratsiya qilingan.

Profilaktika inspektori, kapitan Xayrulla Jumanov turmush o'rtog'i Dilzoda Jumanova bilan 2 o'g'il, 2 qizni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda. Otasiga havas qilgan katta o'g'li Sherxonbek ham kelajakda uning izidan borib, kasbini davom ettirmoqchi.

Lavhamiz qahramoni oila a'zolari bilan barpo etgan



tomorqadagi bog'da olma, anjir, xurmo, nok, gilos daraxtлari hamda uzum, pomidor, bodring, kartoshka, xilma-xil ko'katlar, qovun, tarvuz va boshqa ekinlar ekib, ularni parvarishlab kelyapti.

- Bolalarim ham shu

bog'da mehnat qilib, vaqtini mazmunli o'tkazish bilan birga, hayotning qadriga yetib, hech narsa o'z-o'zidan kelmasligini yanada chuqurroq anglab yetmoqda, - deydi inspektor. - Inson qadri qanchalik ulug' bo'lsa, uning mehnati evaziga yetishtirilayotgan noz-ne'matlarning ham o'ziga xos qadri bor.

Dehqonchilik X. Jumanovga ota kasb, padari buzrukvorli Hamdam aka ham Xayrulloning akasi va ukasi bilan birgalikda, uzoq yillardan buyon bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligida uzum, olma va gilos yetishtirib keladi.

Bundan tashqari, oila das-turxonini badastir qilish maqsadida lavhamiz qahramoni chorva mollarini ham parvarishlab keladi. Ulardan olingen sut va sut mahsulotlari oila farovonligini mustahkamlashga xizmat qilayotir.

**Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.**

Toshkent viloyati.



QILMISH – QIDIRMISH

FOTOSALONDAGI USTASI FARANGLAR

Axborot-kommunikatsiya vositalari va raqamlashtirish imkoniyatlarining shiddat bilan rivojlanishi ko'plab sohalarda yangidan-yanagi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ayniqsa, komputerimizga o'rnatilgan turli dasturlar ish sifati va unumdorligini oshirishga yordam bermoqda. Afsuski, oramizda bunday imkoniyatlardan o'zining g'araz maqsadlarida foydalaniib, jinoyatga qo'l urayotganlar ham uchrab turibdi.

Bekman Xalmuratov (ism-shariflar o'zgartirildi)

tanishi Rasul Seytanov bilan yaxshi niyatda fotosalon faoliyatini yo'liga qo'yishdi. Yosh, chaqqon yigitlar odamlar bilan til topishish va tinimsiz mehnat evaziga tez orada mijozlar to'plashga, tumanda ancha tanilishga muvaffaq bo'lishdi.

Lekin ish yuzasidan Z. Axatova bilan tanishishi yigitlarning hayotini izdan chiqardi. Gap shundaki, kunlarning birida u o'ziga qalbaki haydovchilik guvohnomasi zarur bo'layotganligini ayтиb qoladi va evaziga katta miqdorda pul taklif etadi. Taklif etilgan pulga qiziqqan yigitlar qalbaki

guvohnoma ishlab ko'rishga kirishadi. Oradan bir-ikki kun o'tib, photoshop dasturi va rangli printer yordamida Z. Axatovaga qalbaki haydovchilik guvohnomasini tayyorlab berishga erishishadi.

Bu esa keyingi jinoyat-larga yo'l ochadi. Bu safar avtomashina oynasini qoraytirish uchun beriladigan ruxsatnomani qalbakilashtirib, uni R. Seytanovning otasiga tegishli avtomashina uchun tayyorlashadi. Lekin YHXB xodimlari tomonidan o'tkazilgan reyd davomida avtomashina to'xtatilib, hujjatlari tekshirilganda, ruxsatnomma

ma'lumotlar bazasida yo'qligi ma'lum bo'ladi. Holat yuzasidan tegishli tartibda texnik ekspertiza tayinlanib, uning xulosasi asosida ruxsatnomaning qalbaki ekanligi to'liq tasdiqlandi. Shu bois firibgarlarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov-surishtiruv ishlari davomida rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirish bo'yicha yana bir nechta holatlar aniqlandi. Odil sudlov ustasi faranglarga nisbatan tegishli jazo tayinladi.

**Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

HAYOT SABOQLARI

Bozor – yolg'onchi dunyoning gulzori. Sotganim, olganam zavq oladi.

Uyalganimdan zo'rg'a tishimni tishimga qo'yib chidadam, degan odam ko'p. Lekin shu uyatga sababchi bo'lgan tilini tishlab uzib olgan odam, deyarli yo'q.

Uyat to'rt muchasi sog'bo'la turib, birovning qo'liga qaraydigan odamning ko'ziga qarashga uyaldi.

Tilimizni kambag'al deganga aytdim. Mening bir qishlog'im shevasida birgina maqtanma so'zining guppillama, ishmalama, eshkannama, ovuljima, jo'ljongnoma, ordongromo, mozotlanma, toltoyma, g'o'ddayma, vo'zingdan ketma, girillama, mosoyromo kabi o'ndan ziyod variantlari bor. Qani kimning shevasida bir so'zning o'ndan ziyod sinonimi bor.

Gender tengligini faqat parvardigorning o'zi ta'minlaydi. Gender huquqlari tengligi, deb aytinlar, baraka topgurlar!

Gap mahalla – ma'naviyat beshigi, deb yozib qo'yishda emas. Muhibi, uni barvaqt ma'naviyat tobutiga aylantirib qo'ymaslikda.

Ha, bu qarsak o'lsin, ko'rinib tursa olqishlaydi, ko'rimmasa yer mushtlaydi.

G'iybatning kiyimi hasad degan matodan tikilgan.

Ko'ngil mulki ota-onadan qoladigan meros emas. Ko'ngil qolmaganlardan qoladigan ajoyib xotira.

Nomard ilk so'zini «Falonchi nomardni qara», deb boshlaydi.

Nodonga gap uqtirish piyolani toshga yoki toshni piyolaga urishday gap. Piyolaning singani qoladi.

Shuhrat RO'ZIYEV.



INTERNETGA QARAMLIK «XASTALIGI»

Bugungi kunda bolalar maktab ostonasiga qadam qo'ymasdanoq, uyali telefon, kompyuter, internetning imkon va qulayliklarini bilib olmoqda. Buni ko'rib aksar ota-onalar xursand bo'ladi. Keyin farzandiga qimmatbaho telefon olib berishadi. Qarabsizki, bola ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasini yaratadi. Virtual do'stlar ortiradi. Ammo ularning haqiqatan bor-yo'qligi, hayotda aslida kimligini, maqsad-muddaosi nimaligini bilmaydi. Virtual suhbatdoshlari ko'payishi ko'proq vaqtini «onlayn» tarzda o'tkazishiga, haqiqiy odamlar bilan kamroq muloqot qilishiga olib keladi. Shu tariqa, u xudbin, loqayd, ishyoqmas bo'lib ulg'aya boshlaydi.

Ayrim ota-onalar esa farzandi vaqtini nimalarga sarflayotgani bilan umuman qiziqmaydi. Boisi, o'zлari ham ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlar bilan band. Farzandlarni to'g'ri tarbiyalash uchun vaqt qolmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar loqaydlik, hayosizlik, tubanlik targ'ibotiga «xizmat» qilayotgani ularni tashvishga solmaydi. Internet imkoniyatlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotgan, ongi, hayotiy qarashlari shakllanib ulgurungan yoshlarni to'g'ri yo'lidan chalg'itishga urinadigan g'arazli kuchlar borligi borasida-ku, o'ylab ham ko'rmaydi.

Axir, bolalarda axborot iste'moli madaniyatining sust, turli xabarlar oqimidan eng zarurini ajratib olishda bilim, malaka, ko'nikma yetishmaydi. Insonlar bilan muomala qilishda yetarli tajribaga ega bo'lmagan o'smir turli buzg'unchi kuchlar, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy to'dalar ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Internet terrorchi tashkilotlar o'z g'oyalarini targ'ib qilishi uchun ham qulay vosita. Ayrim notinch siyosiy jarayonlarning kelib chiqishiда ushbu global tarmoqda tarqatilayotgan xabarlarning o'rni katta. Hozirda turli fitnalarga sabab bo'luvchi shov-shuvli yoki yolg'on-yashiq ma'lumotlarni keng ommaga e'lon qilish bilan



shug'ullanuvchi ijtimoiy tarmoqlar zo'r berib yoshlar ongini zaharlashga urinmoqda.

Manbalarda qayd etilishicha, aksariyat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishga odatlangan yoshlar tevarak-atrofidagi real hayotdan, yaqinlaridan, tanishbilish, do'stlaridan uzoqlashadi. Hattoki ovqatlanish, o'ziga qarash, dam olish, tabiiy ehtiyojlari uchun sarflash lozim bo'lgan vaqtini ham shunga bag'ishlaysidi. Ish yoki o'qish bilan band bo'lgan chog'ida ham, ijtimoiy tarmoqdagi sahifasini ko'rishga intiladi. Asosiy e'tibori o'qishga emas, smartfoniga qaratiladi. Bunday nosog'lom intilish, vir-



tual suhbatdoshlar bilan haddan ortiq muloqot qilish ko'plab muammolarga olib keladi. Buni psixologlar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, deb ataydi. Internetga qaramlik sog'liqni saqlash tashkilotlarining rasmiy reyestrlariga kasallik sifatida kiritilmagan bo'lsa-da, dunyo bo'yicha millionlab odamlar ushbu xastalikka chalingan. Ularning aksariyati yoshlar.

Bir qarashda xavfsiz tuyulgan ijtimoiy tarmoqlar ruhiy zo'riqish, asab kasalliklariga olib kelishi mumkin. Bularning barchasi, hech shubhasiz, shaxs tanazzuliga olib keladi. Qaram kishi o'zini xarob qiladigan «mashg'ulot»ga shunchalik berilib ketadiki, u tashqi dunyodan mutlaqo uzilib qoladi, atrofida qiziqarli, jonli va rang-barang hayot kechayotganini payqamaydi.

Yolg'iz va tortinchoq odamlar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikka ko'proq duchor bo'lishar ekan. Chunki ularda haqiqiy suhbatdoshlar bilan muloqot yetishmaydi. Bunga o'z tengdoshlari bilan til topisha olmaydigan o'spirinlar va chaqalog'i uxbab yotganda bo'sh vaqtlarini ijtimoiy tarmoqda o'tkazadigan yosh onalarni ham kiritish mumkin.

Bugungi kundagi taraqqiyotni jahon axborot tarmog'i hisoblangan internetsiz tasavvur qilish haqiqatan ham mushkul. Internet bilimlarning bitmas-tuganmas xazinasi joylangan dunyo kutubxonasi. Uning sharofati bilan osongina ish topish, yangiliklardan xabardor bo'lish, qiziqarli kitoblarni o'qish yoki boshqa muhim ma'lumotlarni olish barchaga qo'l keladi.



Rassom: Husan SODIQOV

Qolaversa, barcha odamlar internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikka uchraydi, deb ham bo'lmaydi. Shaxsiy sahifalariga faqat muhim xabarga javob berish, kerakli manzilni bilish, telefon raqami yoki ma'lumotni yuborish uchun haftasiga bir yoki ikki marta kiradigan kishilar qaramlikka duchor bo'lishmaydi. Ularda oila, do'stlar bilan muloqotda bo'lish, kitob o'qish, sport bilan shug'ullanish, ochiq havoda sayr qilish imkonи paydo bo'ladi.

Qadrli ota-onalar, farzandingizga ezgulikka, poklikka va din-u diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblar olib bering. Kitob mutlaa qilishda o'zingiz ularga ibrat bo'ling.

**Rushana ROZABOYEVA,
O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti talabasi.**

KUZATUV



Xorazm viloyati

Harbiy xizmatdan qaytgan yangiariqlik «Shuhrat» medali sohibi Davronbek Madraximovni viloyat IIB JTSB PPX batalyonini maxsus otryad kinologiga lavozimiga qabul qilishdi. Unga bu xizmat notanish emasdi. Chunki harbiy xizmat paytida ham kinologiya guruhida askarlik burchini o'tab, yetarli tajriba to'plagan edi. Shu bois Davronbek ishga o'zgacha ishtiyoy bilan yondashdi. Jamoat tartibini saqlash, sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izida» fosh etish, qidiruvdagi shaxslarni aniqlashda faol ishtirok etdi.

O'n olti yil samarali xizmat qilib, yetarli bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lgan D. Madraximov PPX batalyonini 2-otryad bo'linma komandiri lavozimida vijdonan va sidqidildan vazifalarini bajardi. Safdorlar – Omon Ro'zmetov, Temur Pirnazarov, Murod Ismoilov, Mo'min Xudoyberganov, Umid Qor-

riyev, Anvar Yangiboyev singari yosh xodimlarga ustozlik qildi.

Yaqinda kichik serjant Davronbek Madraximovni pensiyaga kuzatish tadbirida hamkasblari va shogirdlari bu fidoyi insonning hayoti va xizmat faoliyatiga yuksak baho berishdi.

O'z muxbirimiz.

SPORT

RESPUBLIKA BOSQICHIGA YO'LLANMA

Ichki ishlar organlari xodimlarining jismonan sog'iom va baquvvat bo'lishini yaxshilash maqsadida Navoiy viloyati IIB va uning sohaviy xizmatlari, hududiy bo'limlari xodimlari o'rtasida «Kasbiy olimpiada o'yinlari» sport musobaqasi o'tkazildi. Dastavval xodimlar – yengil atletika bahslari doirasida yugurish sinovlarini topshirishdi. G'oliblikni qo'liga kiritgan xodimlar musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'liga kiritishdi.



Musobaqa erkaklar o'rtasidagi to'sinda tortilish, ayollar o'rtasidagi yerga tayangan holda qo'llarni bukib-yozish kabi mashqlar bilan davom ettirildi. So'ngra xodimlar to'siqlar yo'lagida umumiy nazorat mashqlarini bajarishga kirishdi. Tana mushaklarini yanada rivojlantirishda suv sportining ahamiyati katta. Shu bois musobaqa shartiga ko'ra, ishtirokchilar havzada 100 metrga suzish mashqlarini bajarishdi.

«Kasbiy olimpiada o'yinlari» dasturi doirasida xodimlar Makarov pistoletining taktik-teknik xususiyatlari bo'yicha savollarga javob berishdi,

shuningdek, ushu qurolni to'liqsiz qismalarga ajratib, yig'ishdi. Shundan so'ng o'q otish mashqlarini bajarish uchun maxsus dala maydonida saf tortishdi. Kalashnikov avtomati va Makarov pistoletidan o'q otish sinovlari yanada qizg'in, murosasiz tus oldi. Musobaqa so'ngida barcha qatnashchilar kasbiy tayyorgarlik doirasida olgan bilimlarini nazariy imtihondan o'tkazish uchun test sinovlariga jalb etildi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.





SUV HAVZALARIDA CHO'MILISH QOIDALARINI BILASIZMI?

Cho'milish kishiga g'ayrat va shijoat baxsh etadi. Yoz mavsumi kelgach, kunning issiq harorati kishining cho'milishga bo'lgan ehtiyojini yanada oshiradi. Shu sababli nafaqat kichik yoshdagilar, balki kattalarni ham suzish havzalarida uchratamiz. Cho'milish masalasida doimo hushyor bo'lish cho'kish bilan bog'liq noxush holatlarning oldini oladi.

Ochiq suv havzalarida cho'milganda, albatta, suvning chuqurligi bilan birga, oqim tezligini ham e'tiborga olish lozim. Oqim tezligi daqiqasiga 10 metrdan oshmasligi zarur. Yoz oylarida farzandlarimizni suzishga o'rgatish vaqtini to'g'ri tanlash kerak. Ayrim ota-onalar kunning issiq paytidagina (soat 13:00–15:00) suzishga o'rgatishga yoki cho'milishga ruxsat berishadi. Aslida esa ertalab soat 10:00 dan 12:00 gacha va kechqurun soat 17:00 dan 19:00 gacha quyoshning ultrabinafsha nurllari ko'p bo'ladi va ana shu soatlarda cho'milish juda foydali. Cho'milish muddati 5 daqiqa dan 25–30 daqiqa gacha davom etishi mumkin.

Bolaning yoshi, suzishga tayyorganligi, suvning haroratiga e'tibor berib, suzish muddati asta-sekin oshirib boriladi. Yoz paytlari katta yoshdagagi bolalar suv harorati +18 bo'lganda, kichik yoshlardagilar +20 dan kam bo'lmaganda ochiq suv havzalarida cho'milishlari mumkin.



Agar suvning harorati +16 dan past bo'lsa, cho'milmaslik kerak. Suvga tushishdan oldin bosh, ko'krakni ho'llab, so'ng sho'ng'ib olish darkor.

Ta'kidlash joizki, ayni yoz mavsumida cho'kish bilan bog'liq noxush hodisalar uchrab turadi. Bunga asosan ota-onalar, kattalar tomonidan nazorat bo'shashtirilgani, mahalla, maktab, kollej, akademik litsey va boshqa xizmat xodimlarining yoshlar orasida tushuntirish ishlarini qoniqarsiz olib borayotgani, shuningdek, bolalarning suza olmasliklari ham sabab bo'ladi.

Shuni eslatib o'tish zarurki, faqat qutqaruv xizmati bo'lgan joylardagina cho'milishga ruxsat etiladi. Shunda baxtsiz hodisa yuz bersa, qutqaruv xizmati tezda yordamga keladi. Cho'milish joyini cheklaydigan, ko'pirib oqayotgan suvga sho'ng'ish mumkin emas.

BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

Jabrlanuvchi hushida bo'lib, yurak faoliyati va nafas olishi saqlangan bo'lsa, uning boshini pastga eggan holda, quruq qiya joyga yotqizish va shundan keyin yechintirib, ho'l yoki quruq sochiq bilan artish kerak.

Unga issiq ichimlik (choy, qahva, yoshi kattalarga 1–2 osh qoshiq spirtli ichimlik ham berish mumkin) ichirib, issiq ko'rpa bilan o'rash va dam oldirish lozim.

Agar jabrlanuvchining mustaqil nafas olishi yo'qolib, yurak faoliyati saqlanib qolsa, uning nafas yo'llari tozalanib, iloji boricha tezroq sun'iy nafas oldirishga kirishiladi. Vaqtida va malakali ko'rsatilgan birinchi tibbiy yordam jabrlanuvchining hayotini saqlab qoladi.

Aytib o'tish kerak, ayrim insonlar suv havzalariga spirtli ichimliklari ichib kelishadi. Ma'lumki, spirtli ichimliklarni me'yordan ortiq iste'mol qilish natijasida inson tanasini boshqara olmay qoladi. Mast holatda cho'milishning oqibati esa o'zingizga ma'lum.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, cho'milish borasida hushyor bo'lish kishi salomatligi va xavfsizligining garovidir. Shunday ekan, yurtiminda mavjud cho'milish havzalaridan foydalanganda hushyor bo'lish, bu borada ma'lum qoidalarga rioya etish hamda farzandlarimizning taqilangan joylarda cho'milmasligini nazorat qilish orqali ularning xavfsizligini ta'minlash har birimizning burchimizdir.

**Ulug'bek NODIROV,
Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyot
bo'limi shifokori.**

КАК ПОГОДА ВЛИЯЕТ НА ДАВЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА

Перепады погоды воспринимаются как естественное явление. Но есть категория людей, которые при смене атмосферного давления чувствуют значительное ухудшение общего самочувствия: головные боли, головокружение, упадок сил, ломоту в суставах.

Атмосферное давление и артериальное, то есть давление в сосудах нашего организма, тесно связаны. Артерии и вены быстро реагируют на изменения в атмосфере, расширяясь либо сужаясь.



Высокое атмосферное давление

На изменение давления атмосферы непосредственно влияет температура воздуха, параметры влажности, скорости ветра и даже времена года. Что же происходит в организме человека, а именно с его артериальным давлением? Оно, следуя установленной связи, также повышается. При этом у гипертоников особенно ухудшается состояние. Наиболее частым неприятным симптомом такого состояния является головная боль различной интенсивности и характера. Но могут возникать и другие признаки: шум в ушах, нарушения слуха, потемнение в глазах, сухость слизистых

оболочек, сильное биение сердца, нарушения ритма, болевые ощущения в области сердца, учащение дыхания, одышка.

Низкое атмосферное давление

При повышенной влажности воздуха, облачности, высокой температуре и низком атмосферном давлении проявляется циклон. В это время больше всего страдают гипотоники. При этом, вследствие расширения кровеносных сосудов, кровь медленнее циркулирует по организму. Это приводит к кислородному голоданию тканей и органов. Во время циклона давление падает еще ниже, что вызывает такие симптомы: головокружение, апатия, снижение работоспособности, сильные головные боли, слабый пульс, возможные расстройства пищеварительной системы, затрудненное дыхание.




Рекомендации гипотоникам и гипертоникам

В зависимости от того, какому состоянию вы подвергаетесь, гипотонии или гипертонии, список рекомендаций разительно отличается. Если у вас симптомы, характерные для сниженного артериального давления, то при смене погоды необходимо больше времени проводить на свежем воздухе, заняться активным спортом (бег трусцой, велопрогулки, плавание), пить много жидкости, употреблять кофеиносодержащие напитки (крепкий чай, кофе).



Людям, склонным к гипертонии, рекомендуется придерживаться следующих правил: избегать физического и эмоционального утомления, отказаться от прогулок на солнце, постоянно проветривать помещение, придерживаться правильного питания, исключив соленую, пряную, острую и жирную пищу, не употреблять кофе и иные напитки, содержащие кофеин, вовремя принимать лекарства, назначенные врачом. В любом случае следует наладить режим дня, больше отдыхать, не поддаваться стрессам и правильно питаться. А чтобы своевременно помочь своему организму, важно контролировать давление при помощи приборов.



Связь поколений

ПОТОМСТВЕННЫЙ ОПЕРАТИВНИК

Глубокой ночью неизвестный, открыв с помощью подручных средств окно помещения махаллинского комитета «Машъал», проник внутрь, похитил процессор, ноутбук и крупную сумму денег. Так как ему было неудобно нести украденные вещи, он в подъезде находящегося рядом многоквартирного дома украл электроскутер. Погрузив добычу, скрылся с места происшествия. Такая версия происшествия была выдвинута оперативниками после просмотра кадров с камер наружного видеонаблюдения. К сожалению, лицо злоумышленника рассмотреть не удалось, так как он был в капюшоне.

На оперативном совещании капитан Зафарбек Низамутдинов уверенно заявил: «Он вернется на место преступления, ведь монитор от компьютера ему унести не удалось. А без монитора он не сможет продать компьютер».

Оперуполномоченный группы уголовного розыска отдела внутренних дел УКД ОВД города Андижана капитан Зафарбек Низамутдинов занимается раскрытием преступлений, оперативно-розыскной деятельностью.

Было решено устроить засаду в здании махаллинского комитета. Ночью злоумышленник вновь проник в помещение и был задержан...

В квартире, где проживал Махмуд Худайкулов (имя и фамилия изменены) были обнаружены похищенные вещи. В отношении М. Худайкулова возбуждено уголовное дело.

Зафарбек из династии сотрудников органов внутренних дел. Его дед, Мухтаржон Низамутдинов, и отец, Марат Низамутдинов, на заслуженный отдых вышли в звании подполковника. Дед с должности начальника ЛОВД на станции «Андижан», а отец – начальника одного из отделов Управления уголовного розыска УВД Андижанской области.



После окончания Андижанского машиностроительного института Зафарбек был принят рядовым

сотрудником в отдельный батальон ППС, который занимался обеспечением правопорядка на территории СП «УзДЭУавто». Здесь наставником молодого сотрудника стал командир отделения младший сержант Илхомжон Жураев.

От деятельности капитана зависят спокойствие и благополучие людей, их уверенность в завтрашнем дне и нередко даже жизнь.

– Горжусь тем, что пошел по стопам деда и отца, – говорит капитан Зафарбек Низамутдинов. – Стараюсь не подвести и служить достойно!

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.



Фотоинформация



Личный состав подразделений УКД ОВД города Самарканда обеспечивает общественную безопасность, ведет непримиримую борьбу с преступностью, профилактическую деятельность.



...Оперативно-следственная группа. Значимый инструмент, с помощью которого осуществляется первоначальное реагирование на сообщение о противоправном деянии. Работа каждого специалиста в составе группы важна. Цель – в кратчайшие сроки раскрыть преступление, установить лиц, причастных к его совершению.

Ключевая фигура оперативно-следственной группы – эксперт-криминалист. Злоумышленник, совершая преступление, не может не оставить «засечки». Это прекрасно понимают эксперты, а потому на месте происшествия фокусируются на их поиске: любая улика, ведущая к возможному преступнику, необычайно ценна.

– От качества нашей работы во многом зависит ход расследования. Мы не имеем права на ошибку, а потому необходимо постоянно работать над собой, повышать профессиональное мастерство, расширять знания, касающиеся современных возможностей экспертно-криминалистической деятельности, – делится старший эксперт ЭКО УКД ОВД города Самарканда капитан Жамshed Гаффоров.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

СКАНВОРД


Ижти- моий фан	Само- лёт қисми	Жануб дараҳ- ти	... - маъ- рифат	Ип газ- лама	Шамол кемаси	Фойда келти- радиган	Учин- чи нота	
						Узок Шарқ дарёси	Пойга авто- мобили	...сон
	Шахмат ватани	Кўрса- тиш олмоши		Саҳна асари	Чора			
				Шоҳ ва шоир				
Онт	Курилиш тех- никиси		Въет- нам дарёси	Қадимги чорва- дор халқ			Қизил сайёра	Белги- ланган қатъий баҳо
Тран- спорт тури					Грек алиф- боси ҳарфи		Кулуп- най маъ- нодоши	
		Геоме- трик шакл				Сунъий мато	Кун	Бегона ӯсимлик
			Мото- цикл маркаси	Кучли, пол- вон	Жун мато			
		Хўл мева	Шеъ- рий жанр			Футбол жамоа (Россия)		
			Қатъий ваъда	Муш- тоқ			Манза- рали ӯсимлик	Само- лёт мар- каси
Француз социо- логи		Бай- рам олди				Яқин киши		
				Италия дарёси	Увол		Рақс хара- кати	Куруқ майда шоҳ
Фран- цуз фут- болчиси	Миллӣ либос		Туркия кӯли			Куш аъзоси	Ёт, бегона	Самар- қандаги бозор
					Етук- лик			

СТЕРЕОРАСМ

Ушбу тасвир остида сир-
ли ҳажмий (3D) расм яши-
ринган. Топишга уриниб
куринг.

Кўриш учун тавсия: расмга
қараган пайтингиз нигоҳин-
гизни бўш қўйинг. Расм
чапланиб кетгач, нигоҳни
узмасдан секинлик билан
узоқлашинг.

Стереорасмнинг жавобини
@postdarasmiy телеграм
каналимизнинг 7 июнь кунги
хабарлари орасидан топи-
шингиз мумкин.



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinosarlar –
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –
Temir QURBONOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;
Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^А-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №1933.
Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50347 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka taribda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz